

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

*Pirnazarova Alina Atabekovna*

**“Milliy uslubdagи sandiqlarnи naqqoshlikda bezash texnologiyasi ”**

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**Ro`zmetov Q.Sh**

**Urganch-2017**

## MUNDARIJA

Kirish.....	3-10
<b>I-BOB. SAN'AT KOLLEJLARIDA NAQQOSHLIK TO'GARAK MASHG'ULOTLARINING METODIK TA'MINOTI TARKIBIY QISMLARI MAZMUNINI LOYIHALASH VA UNI O'QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH</b>	
1.1-§. San'at kollejlarida naqqoshlik to'garak mashg'ulotlariniining tashkil qilish metodikasi .....	11-16
1.2-§. Naqqoshlik san'atini to'garaklarda o'rgatish bo'yicha o'quv dasturi.....	17-19
1.3-§. Naqqoshlik san'atidan tashkil qilingan to'garak mashg'ulotlarida talabalarning mustaqil ishslashga yo'naltirish metodlari.....	20-25
1.4-§. Naqqoshlik to'garagi mashg'ulotlarining mazmuni va o'quvchilar bajaradigan amaliy ishlarning ahamiyati .....	26-31
1.5-§. To'garak mashg'ulotlarida naqqoshik texnologiyasi, asbob-uskunalar, materiallar va ulardan foydalanish.....	32-35
1.6-§. To'garak mashg'ulotlarida naqsh kompozitsiyalarini hosil qilish va uni ranglashda Corel Draw Graphics Suite dasturidan foydalanish.....	36-37
<b>II-BOB. MILLIY USLUBDAGI SANDIQLARNI NAQSHLASH TEXNOLOGIYASI VA BOSQICHLARI</b>	
2.1-§. Naqshlanadigan buyumlarning turlar va ularning tuzilishi.....	38-43
2.2-§. Milliy uslubdagi sandiqlarga qo'llanilgan naqsh turlari, ularning tuzilishi va nomlanishi.....	42-45
2.3-§. Milliy uslubdagi sandiqlarga moslab naqsh kompozitsiyalarini tuzish bosqichlari va qonuniyatları.....	46-48
2.4-§. Milliy uslubdagi sandiqlarga qo'llaniladigan naqsh kompozitsiyalariga rang tanlash, ranglash va pardozlash texnologiyasi.....	49-50
2.5-§. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ish jarayoni.....	51-55
Xulosa.....	54-56
Adabiyotlar ro'yxati.....	57
Ilova	

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘rsatish, unga ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Ana shunday milliy uyg’onish davrida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov mustaqillik bilan bog’liq barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida, aniqsa, yosh avlod ma’naviyati, erkin, ozod shaxs ma’rifatiga, madaniyat va san’atning rivojiga alohida e’tibor berdi, chunki ma’naviy madaniyat va san’atsiz, milliy qadriyatlarni yanada yuqori bosqichga ko‘tarmasdan turib, yangi jamiyatni, yangi ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangi dunyoqarashni barpo etish mumkin emasligi ayon bo‘ldi. «Agar iqtisodiy o‘sish, taraqqiyot jamiyatimizning tanasi bo‘lsa, manaviyat-ma’rifat va siyosiy ong etukligi uning ruhi, aqli va jonidir. Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug’ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va keljakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak»<sup>1</sup>.

Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilim tajribasi va kasbiy tayyorgarligiga bog’liqdir. Yoshlarni hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, o‘z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta’minalash doimo davlatimizning diqqat e’tiborida bo‘lib kelmoqda.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining asosiy vazifasi mehnat bozorining uzluksiz ravishda o‘sib borayotgan ehtiyojlariga muvofiq, shuningdek, kichik mutaxassisning aniq kasbiy malaka darajasiga yuqori talablar qo‘yuvchi bozor

---

<sup>1</sup> I. Karimovning O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi umumiy yig‘ilishida so‘zlagan “Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga hizmat qilsin” mavzusidagi nutqidan. “Ma`rifat” gazetasи, 1994 yil, 13 iyul.

iqtisodiyotiga o‘tilishini hisobga olib, yuqori malakali va raqobatbardosh kichik mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Ta’lim jarayonlarini zamonaviylashtirish jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, ularga ta’lim berish va ta’lim oluvchini o‘z ortidan ergashtira olish, ayniqsa, xalq hunarmandchiligi sohasida kasbga yo‘naltirish bugun barcha ta’lim yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

San’at kollejlari talabalarining kasbiy madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning ta’sir kuchi nihoyatda katta. Umumta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlaridagi amaliy san’at o‘qituvchisi mamlakat fuqarolarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda alohida o‘rin egallaydi. Xalq amaliy san’ati tarixi va uning ma’naviy qadriyatlarni biladigan amaliy san’at o‘qituvchisigina o‘quvchilarni xalq amaliy san’atining boy merosi va an’analari bilan tanishtirishi va ularga o‘rgatishi mumkin bo‘ladi. Buning uchun amaliy san’at o‘qituvchisining o‘zi amaliy san’at ishlarini bajarish ko‘nikmalarini, uning nazariy-metodik asoslarini egallagan va rivojlanish shakli hamda xususiyatlarini bilishi, o‘quvchilarni xalq amaliy san’ati turlariga o‘rgatish bo‘yicha mos tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, san’at kollejlari o‘qituvchilarini asosiy vazifalardan biri xalq amaliy san’ati turlarini chuqur o‘rgatish bilan birqalikda uni o‘qitish metodikasining ham optimal variantini ishlab chiqish ham hisoblanadi.

Ana shunday muammolarni hal qilish maqsadida ushbu bitiruv malakaviy ishi yaratildi. Chunki hozirgi kunda yoshlarning xalq amaliy san’ati turlari hunarlarini egallashlarida jiddiy muammolarga ham duch kelinmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida yoshlarga ana shu san’at sirlarini ta’lim muassasalarning kamligi, dars mashg‘ulotlarini tashkil qilishdagi qiyinchiliklar, aniq dasturlarning ishlab chiqilmaganligi va o‘quv qo‘llanmalarining yetishmasligi kabilarni alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Bor darsliklar ham qisqa hajmdagi materiallar bilan cheklanib qolmoqda. Bu darsliklarda amaliy va nazariy ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha materiallar deyarli yo‘q, shu munosabat bilan darslik, mustaqil ish topshiriqlari va metodik qo‘llanmalarni tayyorlash, ulardan

foydalananish imkoniyatlarini zaruriyati yuzaga keldi. Chunki hozirgi kundagi bor darslik va o‘quv qo‘llanmalarda o‘zgarib borayotgan ijtimoiy pedagogik sharoit, ta’lim maqsadlari to‘la e’tiborga olinmagan, o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham e’tibor qilinmagan. Bizningcha yuzaga kelgan muammoni o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari, san’at gimnaziyalari va litseylarining o‘quv rejalariga xalq amaliy san’ati turlarini kurs sifatida, umumta’lim maktablarida esa to‘garak yoki faqultativ mashg‘ulotlari sifatida o‘rganish yo‘li bilan yanada jonlantirish yo‘llarini izlab topishimiz zarur.

Tanlangan bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining dolzarbliji o‘rta maxsus kasb-hunar va san’at kollejlarida xalq amaliy san’ati turlaridan naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarida shu san’at turiga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirish, naqqoshlik haqidagi nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirish, yangi-yangi qo‘sishma ma’lumotlar bilan tanishtirish, ularning ko‘nikma va malakasini shakllantirishga, rivojlantirishga bo‘lgan zaruriyat bilan belgilanadi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ushbu tadqiqot muammolari bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar quyidagi yo‘nalishlarda olib borilgan:

- O‘quvchilarga san’at turlarini, xususan xalq amaliy san’ati turlarini o‘rgatish masalalari bilan O‘zbekistonda S.Abdullayev, S.Bulatov, A.Vasiqov, Q.Qosimov va b. shug‘ullanishgan;
- Xalq amaliy san’ati vositalari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalash masalalari hamda tasviriy san’at va muhandislik grafikasi va amaliy san’at o‘qituvchilari tayyorlashda tasviriy va xalq amaliy bezak san’atini o‘rganish nazariyalari va metodikalari bilan R.Hasanov, S.F.Abdullayev, A.D.Alexin, B.B.Boymetov, V.S.Belov, U.N.Nurto耶ev, E.I.Ro‘ziyev, A.Sulaymonov va b.;
- O‘zbekiston milliy maktablari o‘quvchilarini xalq amaliy san’ati va tasviriy san’at vositalari yordamida badiiy va estetik tarbiyalash masalalari bilan S.F.Abdullayev, A.A.Omonullayev, I.Ahmedov, S.S.Bulatov, J.A.Darmenov, Q.Qosimov, R.Hasanov va b.;
- Bo‘lg‘usi tasviriy va amaliy san’at o‘qituvchilarini nazariy va metodik

tayyorlash muammolari bilan S.Abdullayev, K.Eralin, U.Nurtoev, E.I.Ro'ziyev va boshqalar shug'ullanishgan.

San'at kollejlari tasviriy san'at yo'nalishlari uchun naqqoshlik san'ati to'garagalari bo'yicha mavjud darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar hamda shu yo'nalishdagi boshqa adabiyotlarning tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, hozirgi vaqtgacha:

- San'at kollejlari tasviriy san'at yo'nalishidagi naqqoshlik san'atini to'garak mashg'ulotlarida to'la yangidan o'rganish muammolari ko'rib chiqilmagan;
- Naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish yo'llari, vositalari va metodlari zarur darajada ishlab chiqilmagan;
- San'at kollejlarida tashkil qilingan naqqoshlik to'garak mashg'ulotlari uchun hozirgacha o'quv-metodik kompleks yaratilmagan.

Bu ahvol bo'lg'usi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni qiyinlashtiradi va oqibatda umumta'lim maktablari, litsey va kollejlarda amaliy bezak san'ati darslarini o'qitishni tashkil qilishga salbiy ta'sir qiladi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida tasviriy san'at mutaxassisligiga qo'yiladigan talablar va ularni tayyorlashda amalda qo'llanilayotgan metodik ta'minotning mazmuni, shakli, o'qitish vositalari va metodlari o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi. Ushbu muammoning yechimini topish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi:** tadqiqotni "Kadrlar tayyorlash milliy dasturini" amalga oshirish jarayonida talim tizimi va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni isloh qilish, rivojlanТИrish muammolari" Davlat texnik ilmiy dasturi doirasida bajarish rejalashtirilgan.

**Tadqiqot maqsadi:** San'at kollejlari ta'lim jarayonida to'garak mashg'ulotlari tashkil qilinib, unda naqqoshlik san'atini o'rganish nazariyasi va metodikasini takomillashtirish yo'li bilan ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini orttirish.

## **Tadqiqot vazifalari:**

1. Respublikamizdagi san'at kollejlari ta'lim tizimida naqqoshlik san'atidan to‘garak mashg‘ulotlari sifatida shakllanishini o‘rganish.
2. Naqqoshlik san'atini san'at kollejlarida hozirgi kunda o‘qitilishini tahlil qilish, talabalarni xalq amaliy san'atining keng tarqagan turlaridan biri – mahalliy naqqoshlik uslublarini o‘zlashtirishlarini o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish.
3. Naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlaridan talabalar o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan nazariy materiallar va bajarishi zarur bo‘lgan amaliy ishlar turlarini tanlash mezonlarini ishlab chiqish.
4. San'at kollejlarilardagi naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda rivojlantirishga metodologik va kontseptual’ yondashuvlarni asoslash;
5. Respublikamiz ta'lim tizimidagi so‘ngi yillardagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda san'at kollejlaridagi naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlari ta'lim mazmunini loyihalash va standartlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish;
6. Naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarini san'at kolleji talabalari samarali o‘zlashtirish usullari va metodlarini aniqlash, metodik va ko‘rgazmali qo‘llanmalar tayyorlash.
7. Naqqoshlik san'atidan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilish uchun o‘quv-metodik kompleks yaratish.
8. Naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlaridan taklif qilinayotgan o‘quv-metodik kompleksning samaradorligini tajribada sinab ko‘rish.

**Tadqiqot ob’ekti:** San'at kollejlarida tasviriy san'at yo‘nalishlari uchun tashkil qilingan to‘garak mashg‘ulotlaridagi o‘quv-tarbiyaviy jarayon.

**Tadqiqot predmeti:** San'at kollejlarida tasviriy san'at mutaxassisliklarini tayyorlash jarayonida naqqoshlik san'atini to‘garak mashg‘ulotlarida o‘rganish bilan talabalarning badiiy-nazariy va metodik tayyorgarligi samaradorligini oshirish.

**Tadqiqotning ilmiy farazi:** agarda quyidagi masalalar amalga oshirilsa, tasviriy san'at mutaxassisligini kasbiy shakllantirish jarayoni muvaffaqiyatli tashkil etiladi:

- naqqoshlik san'atini to'garak mashg'ulotlari sifatida shakllanishi va uning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi amaliy ahamiyati tahlil qilib chiqilsa;
- naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarida o'zbek xalq amaliy san'ati turlari, uning o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanilish sohalari haqida talabalarga yetarlicha hajmda ma'lumotlar berib borilsa;
- naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarining metodik ta'minotiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilib, bir tizimga keltirilsa;
- naqqoshlik to'garak mashg'ulotlari va talabalar bajaradigan amaliy ishlarning mazmuni maxsus ishlab chiqilgan mezonlar va shu asosda takomilashtirilgan dastur bo'yicha tashkil qilinsa;
- naqqoshlik to'garak mashg'ulotlari uchun ilmiy asoslangan o'quv-metodik kompleks tayyorlanib, ta'lim jarayoniga joriy qilinsa.

**Tadqiqot metodlari:** umumilmiy (tarixiy, biografik, retrospektiv-istiqbolli, kontent-tahlil), modellashtirish (loyihalash), sotsiometrik (anketa, test, so'rovlар, suhbat, interv'yu), bevosita va bilvosita pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, ekspert baholash.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni; "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"; Vazirlar mahkamasining tegishli qarorlari; O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari; uzluksiz ta'lim tizimida badiiy estetik tarbiyalash bo'yicha Davlat ta'lim standartlari; respublikamizda amaliy san'atni rivojlantirishga qaratilgan meyoriy hujjatlar; milliy san'atning ijodiy faoliyat, shaxs va jamiyatning rivojlanishidagi o'rni haqidagi falsafiy va pedagogik g'oyalari; psixolog va pedagog olimlarning uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash xususidagi g'oyalari xizmat qiladi.

**Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari.** Tadqiqot ishining asosiy g'oyalari va san'at kollejlarida naqqoshlik san'ati to'garaklarda o'qitilishini takomillashtirish bilan bog'liq tajriba-sinov o'qishlari Urganch shahar madaniyat va san'at kollejida "Tasviriy san'at" yo'nalishida o'tkaziladi.

**Tadqiqotning amaliy tadbiqi:** Tadqiqotning asosiy g‘oyalari hamda tayyorlanadigan o‘quv-metodik kompleksdan san’at kollejlarining mos ta’lim yo‘nalishlarida, uning ayrim qismlaridan kasb-hunar kollejlari va umumta’lim maktablaridagi amaliy san’at va to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

1. San’at kollejlarida naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishning ilmiy-metodik asoslari respublikamizda yana bir marotaba o‘rganilib, ta’lim jarayoniga tadbiq qilinadi.
2. Tasviriy san’at mutaxassisligi qo‘yiladigan talablar va uning naqqoshlik san’ati bo‘yicha egallashi zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarini hisobga olgan holda naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishning yangilangan, samarali mazmun va metodikasi yaratiladi.
3. Naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarining mazmuni takomillashtirilib, shu fan bo‘yicha birinchi marotaba o‘quv-metodik kompleks yaratiladi.
4. Naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlari samaradorligini orttirish uchun mashg‘ulotlarda komp’yuter va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

**Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:**

1. Naqqoshlik san’ati to‘garak mashg‘ulotlaridan ta’lim mazmunini loyihalash va standartlashtirish tamoyillari.
2. Talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik tizimi hamda uni amalga oshirishning didaktik shart-sharoitlari.
3. Naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarida talabalarning kasbiy rivojlanishidagi uzviyilagini ta’minlashga qaratilgan mazmuni hamda kasbiy ahamiyatli sifatlarini shakllantirish metodikasi.
4. Talabalarning amaliy va mustaqil ta’limlarini tashkil etish va ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizim.

**Tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati.** Naqqoshlik san’atining to‘garak sifatida yangidan shakllanishi va uning o‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati o‘rganiladi; tasviriy san’at mutaxassisligi talabalarining naqqoshlik san’ati

bo‘yicha egallashi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari aniqlanadi; naqqoshlik san’ati mashg‘ulotlarining mazmuni o‘rganib chiqilib, uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi;

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati.** Naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlari bo‘yicha amaldagi o‘quv dasturini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi; shu fan bo‘yicha o‘quv-metodik kompleks (dastur, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali qo‘llanmalar, elektron darslik) tayyorlanadi; o‘quv-metodik kompleksni ta’lim jarayoniga kiritish metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotda sinab ko‘riladi.

Tadqiqotning muhim nazariy va amaliy g‘oyalaridan viloyatimizdagи san’at kollejlarida mahalliy naqqoshlik uslubini fan sifatini o‘qitishda, shuningdek “Tasviriy san’at san’at” yo‘nalishlarida mutaxassislik fanlari mazmunini va metodik ta’minotini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

# **I-BOB. SAN'AT KOLLEJLARIDA NAQQOSHLIK TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARINING METODIK TA’MINOTI TARKIBIY QISMLARI MAZMUNINI LOYIHALASH VA UNI O‘QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH**

## **1.1-§. San’at kollejlarida naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlariniining tashkil qilish metodikasi**

San’at kollejlarida estetik tarbiya yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga hizmat qiladi.

Estetik tarbiya-tarbiyaning tarkibiy qismi, shaxsnинг shakllantirishning ta’sirchan vositalaridir. U yosh avlodning ma’naviy kamol topishiga yordam beradi, unda estetik ehtiyojlarni vujudga keltiradi, go‘zallik ideallarini, badiiy didni, texnik o‘quv va malakalarni shakillantiradi, bolaga atrofdagi voqelik go‘zalliklarni to‘liq idrok etishda ko‘maklashadi. Yosh avlodning tarbiyasini yangi jamiyat qurish vazifalari bilan, davlat qurilishi, shuningdek, yangi maktablarni barpo etish vazifalari bilan chambarchas bog‘liqdir. U yangi ijtimoiy tuzimda xalq ilgari hech qachon mumkin bo‘lmagan go‘zallik yarata olishini qayd qiladi, san’atning ammoga ta’sir ko‘rsatishining qudratli vositasi, deb biladi.

Yuqorida aytilganidek, estetik tarbiyaning eng samarali vositasi san’at, uning har xil turlari va janrlaridir. Keyingi paytlarda halq san’atiga qiziqish kuchaygan bo‘lsada, dekarativ-amaliy san’at ayniqsa halq ijodiyoti maktab praktikasida etarli darajada qo‘llanilmayotir. Har bir xalqning an’anaviy san’ati madaniyat xazinasiga o‘zining yaxshi yutuqlarini qo‘shadi, kishilarning turmushini bezaydi, ularning estetik tarbiyasida hamkorlik qiladi. Shuning uchun xalq amaliy san’ati turlaridan biri naqqoshlik san’atini to‘garak mashg‘ulotlari orqali o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

San’at kollejlaridagi badiiy naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarini yo‘lga keltirish ijodiyotning ana shu turning spetsifikasini hisobga olishni taqoza etadi va shunga ko‘ra qator nazariy, hamda amaliy masalalarni ishlab chiqish zaruriyati tug‘iladi. Bulardan eng muhimlari: ijodiy va texnologik jarayonlar mahsuli sifatidagi badiiy naqqoshlik asarlarining spetsifikasi, atrof-muhit bilan bog‘liqligi;

hozirgi kasb-hunar kollejlarining moddiy-tashkiliy imkoniyatlari, nuqtai nazardan san'atning turi sifatidagi naqqoshlik, to'garak binolarini tashkil etishga talablar qo'yiladi.

Naqsh san'atini o'rganishda eng zarur tadbir - O'zbekiston dekorativ-amaliy san'atidagi badiiy ijodiyotning ana shu turi rivojlanishining tarixiy bosqichlari va qonuniyatlari bilan tanishishdir. Hususan tarixiy materiallar o'quvchilarda badiiy naqqoshlik spetsifikasi, uning ko'rgazmali muhitni tashkil etishdagi, kishilar hayotidagi roli, ya'ni nazariy estetik asoslari haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish imkonini beradi. O'quvchilarni o'zbek naqshining uslubiy xususiyatlari bilan tanishtiradi, bir yo'la o'zbek halqining juda boy madaniyati, ajoyib an'analari bilan ham tanishtirish lozim. Qadimdan saqlanib qolgan mehnat qurollariga, maishiy buyumlarga qarab uzoq o'tmishtagi kishilarning hayoti to'g'risida hulosa chiqarish mumkin.

Hunarmand ustalar kishini lol qoldiradigan ajoyib naqsh kompozitsiyalarini yaratib, ana shu naqshlarda o'zlarining fikr va orzu-umidlarini ifodalab, ularni "odamga o'xshab gapirishga" majbur qilganlar. Qadimgi O'rta Osiyo madaniyatining vakillari Ibn Sino, Beruniy, Nosir Xisrav, Sulton Ali Mashhadiy, Mirzo Ulug'bek, Nizomiy, Alisher Navoiy, Jomiy, Umar Hayyom va boshqalar qadimgi amaliy san'at sohiblarining asarlarini, mahoratlarini halq naqshlarini arxitektura konstrutsiyasiga uyg'un bog'lay olganini madh etganlar.

Pedagogning vazifasi – o'quvchilarga xalq ustalarining asarlarini ko'ra olish va tushinishni, san'atkorning poetik fikrlarini ilrok etishni o'rgatishdir. Buning uchun o'quvchi badiiy naqshning mohiyati nimalardan iboratligini, usta asarni qanday qilib yaratishini, bu san'atning qanaqa janrlari mavjudligi va hakozalarni bilish kerak. Dekorativ- amaliy san'atning bilishni pedagogik jihatdan muhimliligi sababini quyidagilar bilan izohlash mumkin: san'atning ana shu turiga oid asarlar o'quvchilarda moddiy olamni idrok etishning estetik madaniyatini tarkib toptiradi, voqelikka estetik munosabatni shakllantiradi, ularga tasviriy san'atning boshqa turlariga xos badiiy ifoda vositalarini chuqurroq bilishda yordam beradi.

O‘quvchilarda pisixologik kayfiyatni vujudga keltirish naqsh to‘garaklaridagi ta’lim -tarbiya ishlari samaradorligini oshirishning muhim omillaridir. Bunga tajribali naqqosh o‘zining amaliy ishni namoyish etishi yoki o‘tmishdagi ustalarining asarlarini tahlil qilish orqali erishishi mumkin. Masalan, “islimi” yoki “girih” naqshlarining qanday ishlanishini ko‘rsatish yaxshi omilddir. O‘quvchilar ustuning qo‘l harakatlari natijasida naqsh elementlarini qo‘silib chizib borishga, ranglarni uyg‘unlashuvini ko‘rgan zahoti o‘z ustalarining ishini takrorlashga harakat qiladi.

Yuqorida aytilgandek, naqqoshlik to‘garagini tashkil etishda naqqoshlik san’atida yagona texnalogiya mavjud emasligi bilan ham murakkablashadi. Har bir pedagog, rahbar yoki usta xalq naqshi elementlarini o‘zining o‘zbek naqshiga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi ko‘pincha noaniq tasavvurga asoslanib tushintiradi.

Hozirgi estetik tarbiya nazariyasi va praktikasidagi kollej yoshidagi o‘smirlarda ranglarni estetik xis qilishning rivojlanishini o‘rganishga aloxida e’tibor beriladi. Bu masala o‘quvchilarga badiiy ta’lim berish va ularni kamol toptirishning mazmuni hamda metodlarini yanada takomillashtirishda muhim bo‘lim hisoblanadi. Ko‘p yillik tajriba o‘quvchilar ranglar nomini yaxshi o‘zlashtirishlarni, rangni faqat asosiy xarakteristikasi bo‘yicha ham farqlashni tez o‘rganishlarni, kolorit va ranglar munosabatining ayrim masalalarini yaxshi tushintirishlarini ko‘rsatadi.

Naqshda qandaydir element o‘zinig ma’naviy va kompozitsion ahamiyati bilan aloxida o‘rin tutsa, uning rangi maxsus ajralib turishi mumkin, bunday holda naqsh kompozitsiyasining kolorit yaxlitligi buzilmaydi. Bunday element ikkinchi darajali, qo‘sishimcha bo‘lgan hollarda esa uni ajratadigan rang kompozitsiyadagi asosiy narsaning idrok etilishiga monelik qiladi, uning uyg‘unligini buzadi, undan chiqib ketadi. Tusi qarama -qarshi ranglarni qo‘silishi eng uyg‘un bo‘ladi. Ammo bunday uyg‘unlik har doim ham foydali bo‘lavermaydi. Ayrim hollarda tusi qarama-qarshi ranglarning birikishi haddan tashqari keskinlikni vujudga keltiradi .

Mehnat hamda badiiy faoliyatning boshqa anchagina turlaridagi kabi naqqoshlikda ham malaka va mahoratni egallash tobora murakkablashib boradigan bosqichlarda amalga oshadi, o‘quvchilarning ma’lum darajada umum ta’limiy va psixologik tayyorgarligini talab qiladi. Shuning uchun naqqoshlik to‘garaklari barqaror va muvaffaqiyatli ishlashida ulardagি o‘quvchilarni to‘g‘ri guruhlash muhim ahamiyatga ega.

To‘garakdagi o‘quvchilarni baholash birinchidan, ta’limiy-ijodiy dasturning murakkabligi ortib borishini ta’minlashi, ikkinchidan esa bitta guruhdagi har bir o‘quvchi bilan sinxron pedagogik ish borishi imkonini berishi kerak. Nihoyat, o‘quvchilarni yoshiga qarab differentatsiyalash to‘garak mashg‘ulotlarida ular oldiga qo‘yiladigan vazifalrning kasb –hunar kollejidagi majburiy o‘quv predmetlarida o‘zlashtirilgan bilim va malakalariga muvofiqligini taminlash lozim.

Albatta to‘garak va majburiy ta’lim dasturlari o‘zaro to‘la muvofiq bo‘lmaydi. To‘garak ishini maktabdagiga qaraganda har bir guruhgа faqat bir xil bosqich o‘quvchilarini jamlagan holda tashkil etishni ta’minlash maqsadga muvofiq. Guruxlarni har bir bosqichga qarab differentatsiyalashda asosiy qoidani buzishga majbur etadigan yana boshqa sabab - o‘quvchilarda badiiy iste’dod va qobiliyatlarning turli darajada rivojlangan bo‘lib, xuddi shunga ko‘ra badiiy ta’lim vazifalarini hal qilishda katta farqlarni kuzatish mumkin. Ana shularni nazarda tutib o‘quvchilarni to‘garakka qabul qilishdan oldin ularning qobiliyatlarini, tayyorgarlik darajasini aniqlash kerak.

Ma’lumki, dastlabki bosqichda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning ayrimlari keyingi bosqich kategoriyasidagi o‘quvchilarga tavsiya etiladigan dastur bo‘yicha badiiy ijodning har xil turlarini egallash uchun zarur imkoniyat va katta resurslarga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarning badiiy tayyorgarligi va qobiliyati o‘z guruxi uchun etarli darajada rivojlanmaganligiga asoslanib kichik gruppadagi mashg‘ulotlarga jalb etish ham ma’qul emas. Shunday qilib, to‘garak guruxlarining yosh sostavini belgilaydigan ikkita asosiy omil mavjud: 1)to‘garak gruppalaridagi mashg‘ulotlar dasturining kasb-hunar kollejidagi majburiy ta’lim

dasturlariga rasman muvofiqligi; 2)har bir o‘quvchining mazkur guruxdag‘i mashg‘ulotlarga umumiy va maxsus tayyorgarligining haqiqiy darajasi.

Bizningcha, turli davrlarda tabiiy o‘sish va ta’lim –tarbiya jarayoni natijasida egallagan jismoniy va psixik imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilishda asosan quyidagi jihatlarni etiborga olish zarur: 1) o‘quvchilardagi naqqoshlik ishlarining qandaydir bitta yoki bir nechta turlari bilan shug‘ullanishga jismoniy tayyorgarlikni; 2) bitta guruxdag‘i bir xil yoshli o‘quvchilarning psixologik birlashuvini; 3) bir necha “yondosh” o‘quv yillaridagi ta’lim dasturlarining o‘z harakteri va yo‘nalishlari bo‘yicha, tasviriy san’at, fizika, ximiya, matematika, mehnat, adabiyot, tarix fanlarida o‘rganiladigan masalalarni qo‘yishning murakkabligi va chuqurligi darajasi bo‘yicha o‘zaro yaqinligini.

Ana shu uchta jihatning naqqoshlik to‘garagida o‘quvchilarni bosqichlarga bo‘lib jalb qilish ahamiyatini ko‘rib o‘tamiz.

O‘quvchilar 1-kursdan boshlab to‘garak mashg‘ulotlariga jalb qilish maqsadga muvofiqdir. To‘garak qatnashchilarni uchta guruxga ajratib qabul qilinadi.

1-kurs talabasi jismoniy va aqliy rivojlanishi unga naqqoshlik to‘garagida shug‘ullanishga to‘la imkon beradi. Badiiy ijodning ana shu turining tehnika texnologiyasi ortiqcha jismoniy kuch sarflashni, uzoq vaqt muskullarni zo‘riqtirib ishslashni va diqqatni bir joyga to‘plashni talab qiladi .

2-3-kurs o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablar ortadi, beriladigan topshiriqlar murakkablashadi, o‘quvchilarda esa mashg‘ulotlarga barqaror qiziqish namayon bo‘ladi, sabotlilik, o‘z ijodiga jiddiyroq munosabat vujudga keladi. Respublikaning kasb-hunar kollejlarining mashg‘ulot dasturlari to‘la to‘kis ana shu ma’lumotlarga asoslanadi. Badiiy naqqoshlik to‘garagi mashg‘ulotlari dasturi quyidagi talablarni to‘la qondiradi:

1. Kasb-hunar kollejlari oldida turgan ta’lim-tarbiya vazifalariga javob beradi.
2. Mashg‘ulotlar vazifalarning asta- sekin murakkablashuvini hisobga olib tashkil etiladi.

3. Mashg‘ulotlar kerakli materiallar, asbob-uskunalar va bajarish texnikasi haqida to‘la tasavvur hosil qiladi.

4. Naqqoshlik mashg‘ulotlari o‘quvchilarning badiy didini va ijodiy qobiliyatini ruvojlantirishi, halq ijodiga va ustalariga qiziqish hamda muhabbat uyg‘otishi kerak.

Dastur quyidagi printsiplar asosida tuziladi:

1. Naqqoshlikning spetsifikasini hisobga olish.
2. To‘garak qatnashchilarining yosh hususiyatlarini va san’atning ana shu turiga qiziqishlarni hisobga olish.
3. Ta’limiy-ijodiy vazifaning asta sekin murakkablashuvi.
4. O‘zbek halq naqqoshligining milliy an’analari.

Birinchi fazo – harakatning ayrim elementlarini o‘rganish va qator alohida detallarni bitta butun qilib birlashtirish. To‘garak rahbari ana shu bosqichda cho‘tkani qo‘lda qanday tutish kerakligini, to‘g‘ri chiziq va egri chiziqlar qanday chizilishini ko‘rsatadi. Bu ish avval bolaga bir muncha qiyinchilik tug‘diradi; uning qo‘llari va barmoqlari o‘ziga yaxshi itoat etmaydi, bu hol ayniqsa qog‘ozga emas, balki boshqa materiallarga ishslashda ko‘proq yuz beradi. To‘garak qatnashchilari cho‘tkani ikkita barmoq bilan ushlab faqat jumjiloqqa tayanish o‘rniga ko‘pincha uni peroli ruchka singari ushlaydilar.

Qo‘lni ishlatishda quyidagi qoidalarni bilib olish zarur. Stol yonida tirsa va ko‘krak bilan tayanmay erkin o‘tirish, gavdani stoldan muayyan oraliqda tutish lozim. Cho‘tkani ikkita barmoq - bosh va ko‘rsatkich barmoqlar bilan ushslash, ishga faqat jumjimoloqni tirab turish kerak; bordi-yu bu qiyinlik qilsa, mushtabedan foydalanish mumkin.

## 1.2-§. Naqqoshlik san'atini to‘garaklarda o‘rgatish bo‘yicha o‘quv dasturi

t/ №	Mashg‘ulotlarning mavzusi va mazmuni	Ma’ruza	Amaliy	Jami
I. Kichik gurux				
1	Kirish. Naqqoshlik san’atining shakllanish tarixi, uning maktablari va namoyondalari.	2	-	2
2	Texnika xavfsizligi qoidalari	1	-	1
3	Naqqoshlik san’atida ishlataladigan asbob-uskunalar va materiallar.	1	-	1
4.	Naqqoshlik san’ati matabida qo‘llaniladigan naqsh turlari va naqsh elementlari. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari.	2	24	26
5.	Oddiy naqsh namunalarini chizish.	4	72	76
6.	Naqsh kompozitsiyalarda rangshunoslik. Bo‘yoqlar bilan ishlash texnologiyasi.	1	7	8
7.	Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish.	2	26	28
8.	Yil davomida bajarilgan ishlar yakuni	2	-	2
	Jami:	15	129	144.s.
II. O‘rta gurux				
1.	Oddiy naqsh namunalarining band va gullarini bo‘yash.	2	22	24
2.	Naqqoshlik san’atida chiziladigan naqsh kompozitsiyasini tuzish qonuniyatlari va chizish bosqichlari.	6	-	6

3.	Naqqoshlik san'atida ruta naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	25	27
4.	Naqqoshlik san'atida uchburchak ichiga naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	25	27
5.	Naqqoshlik san'atida to'rtburchak ichiga naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	25	27
6.	Naqqoshlik san'atida aylana ichiga naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	25	27
7.	Naqqoshlik san'atida girix naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	3	24	27
8.	Naqqoshlik san'atida gulli girix naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	20	22
9.	Naqqoshlik san'atida munabbat naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	24	26
10	Yil davomida bajarilgan ishlar yakuni	3	-	3
	Jami:	26	190	216.s.

### III. Katta gurux

1.	Naqqoshlik san'atida turunj naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	16	18
2.	Naqqoshlik san'atida namoyon naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	16	18
3.	Naqqoshlikda ishlatiladigan	3	-	3

	yog‘ochlar va duradgorlik ishlari.			
4.	Naqqoshlik san’atida yog‘och buyumlarni naqshlash.	2	6	8
5.	Ramka, quticha va yog‘ochdan yasalgan buyumlarni naqshlash.	2	34	36
6.	Kursichani naqshlash.	2	30	32
7.	Qabariq sirtli buyumlarni naqshlash.	2	20	22
8.	Milliy xontaxtani naqshlash.	3	30	33
9.	Binolarni bezash loyihasini ishlash.	3	40	43
10	Yil davomida bajarilgan ishlari yakuni	3	-	3
	Jami:	24	192	216 s.

### **1.3-§. Naqqoshlik san'atidan tashkil qilingan to‘garak mashg‘ulotlarida talabalarning mustaqil ishlashga yo‘naltirish metodlari.**

San’at kollejlarida tashkil qilingan to‘garak mashg‘ulotlarida naqqoshlik san’atini o‘rgatishda va uni o‘qitishni hozirgi zamon talablari asosida to‘g‘ri tashkil etishda mustaqil ta’lim alohida o‘rin egallaydi.

Talabalarga naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarida mustaqil ishlash uchun beriladigan topshiriqlar asosan, olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, o‘rganilgan o‘quv materiallarini takrorlash, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun mo‘ljallanadi. Mustaqil ta’limning mazmuni o‘quv predmetining mazmun va maqsadi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

San’at kollejlarida o‘qitiladigan naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarida mustaqil ravishda ishlashni tashkil etish mazmuni va metodikasi deyarli ishlab chiqilmagan. Bizningcha, naqqoshlikdan tashkil etiladigan to‘garak mashg‘ulotlarida mustaqil ishlarning taqvim-mavzu rejasi ishlab chiqilishi zarur. Unda amaliy ish va test topshiriqlari, auditoriyada va uyda bajarish uchun mo‘ljallangan mustaqil ta’lim mavzusi va ularni bajarish shakllari aniq ko‘rsatiladi. Natijada talabalar qator topshiriqlarni uyda mustaqil bajarishlari ta’minlanadi. Bu esa ularning malaka, ko‘nikma va ijodkorlik qobiliyatlarini yanada oshiradi.

Mashg‘ulotlarda mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: mustaqil ta’limning ilmiyligi va tadqiqot harakterida bo‘lishi; mustaqil bilish ehtiyojini orttirishi; mustaqil ta’lim ishlarini individual bajarish; mustaqil ta’limni tashkil etishga uslubiy rahbarlik qilish; talabalarning fan bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajarishini nazorat qilish; nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarini baholab borish; talabalarning “Naqqoshlik” san’at va kasbga bo‘lgan qiziqishini oshirish; talabalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish; naqqoshlik san’ati bo‘yicha iqtidorli talabalarni tanlash va ularga chuqur bilim berish maqsadida nazariy va amaliy topshiriqlar tayyorlash; talabalarga oddiydan murakkabgacha bo‘lgan naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ranglash va padozlash, turli xil buyumlarga naqsh solish texnologiyasini kengroq o‘rgatish, komp’yuterlardan foydalanib naqsh kompozitsiyalarini mustaqil bajarishlari uchun

shart-sharoit yaratish; talabalarning mustaqil ishlarni bajarish natijalarini baholashda joriy, oraliq va yakuniy baholash natijalarini e'tiborga olish. Quyidagi Naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarida mustaqil ishslashga va bajarishga yo'llaydigan nazariy bilimlar berishga oid misollar keltirib o'tamiz.

**Mavzu:** «Ustoz-shogird» an'analari asosida naqqoshlikning o'rgatilishi.

**Mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt- 4 soat.**

**Mashg'ulot maqsadi:** Hunarmandchilik odobi tarixi, hunarmandchilik mahallalari. “Ustoz-shogird” an'analari asosida naqqoshlik hunarini o'rgatilishi haqida ma'lumot berish; Ustoz odobi, shogird odobi. Ustoz- shogirdning shaxsiy va kasbiy fazilatlari, mezonlari ochib beriladi.

**Mustaqil ta'limni rasmiylashtirish tartibi:** titul varaqasi, mavzu, reja, matn, foydalanimanligi adabiyotlar ro'yhati, foydalanimanligi Internet manbalari, mustaqil ishni jildlash, matnning elektron varianti.

Ishning hajmi kamida 10-14 bet atrofida bo'lishi kerak. Taqdimot uchun tayyorlangan slaydlar ilovaga kiritiladi.

Quyidagi jadvalda naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarida tashkil etiladigan mustaqil ish shakllaridan misollar keltirilgan.

“Naqqoshlik” to'garak mashg'ulotlarida tashkil etiladigan mustaqil ishlar shakllari

No	Mavzular	Soat	Topshiriqni bajarish shakli	Bajarish uchun qo'yilgan talablar
1	«Ustoz-shogird» an'analari asosida naqqoshlikning o'rgatilishi	4	Referat	Mavzu bo'yicha reja tuziladi, adabiyot va internetdagи axborotlardan foydalaniб mavzu yoritiladi. Referat xajmi 10-14 betlar atrofida bo'lishi kerak.
2	Oddiy naqsh elementlarini chizish.	4	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun

	Gul, barg, novda, shkifta, bofta va boshqa elementlarni chizish.			reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
3	O'simlik va hayvonot dunyosidan olingan turli shakllarni qayta ishlash. (butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar)	4	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
4	Oddiy naqsh namunalarini tartib raqami bo'yicha chizish.(1-10-gullar)	8	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
5	Rangshunoslik texnologiyasi. Ranglash va pardozlash turlari.	6	Referat	Mavzu bo'yicha reja tuziladi, adabiyot va internetdagи axborotlardan foydalanib mavzu yoritiladi. Referat hajmi 10-14 betlar atrofida bo'lishi kerak.
6	Oddiy naqsh namunalarini bo'yash va unga pardoz berish. (1-10-gullar)	34	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
7	Naqqosh ustalar ishlaridan nusha ko'chirish.	26	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
8	Ixtiyoriy namoyon naqsh kompozitsiyasini chizish, ranglash va	28	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar

	pardozlash.			bajariladi.
9	Buyum yuzalariga naqsh kompozitsiyasi chizish, ranglash va pardozlash.Ko‘p qirrali stol, kursi yoki xontaxtani naqshlash.	26	Amaliy ish	Mavzu bo‘yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
10	Ko‘p qirrali stol, kursi yoki xontaxtani naqshlash.	29	Amaliy ish	Mavzu bo‘yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
11	Corel Draw Graphics Suite dasturi yordamida inter’er va ekster’erni badiiy loyihalash.	8	Amaliy ish	Mavzu bo‘yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
12	Ma’muriy va turar joy binolarini naqshlash metodlari.	4	Referat	Mavzu bo‘yicha reja tuziladi, adabiyot va internetdagi axborotlardan foydalanib mavzu yoritiladi. Referat xajmi 10-14 betlar atrofida bo‘lishi kerak.
13	Binolarni naqshlashda turli bo‘yoqlardan foydalanish va rang tuslarini tayyorlash texnologiyasi. Pardozlash, targ‘il va edirma usulini qo‘llash.	8	Amaliy ish	Mavzu bo‘yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
14	Inter’erning devor yoki shift qismi uchun	8	Amaliy ish	Mavzu bo‘yicha topshiriqlarni bajarish uchun

	aylana, oval, girix va murakkab naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ranglash va pardozlash.			reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
15	Bino ekster'erining kerakli qismiga naqsh kompozitsiyalarini chizish, ranglash va pardozlash.	8	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
	Jami:	205s		

Talabalarda mustaqil ishslash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi: talabalarning ishslash faoliyati. Ko'nikma va malakalarini o'rghanish va tahlil qilish; mustaqil ta'lim mazmunini belgilash va mustaqil ishlarni bajarish texnologiyasini ishlab chiqish; belgilangan ta'lim mazmuni asosida talabalarning mashg'ulot davomida va mashg'ulotdan tashqari vaqtarda mustaqil ta'lim o'quv yuklamasi va zaruriy vaqt byudjetini\_aniqlash; mustaqil ishlar mazmunini ishlab chiqish, mashg'ulotlar va uy vazifalarini, mustaqil ta'limni optimal rejlashtirish; loyihalashtirilgan mustaqil ta'limni sinovdan o'tkazish; nazariy va amaliy bilimlarni o'rghanish jarayonini amalga oshirish uchun mustaqil ta'lim shakllarini tanlash; uslubiy ishlanmalar, dasturli animatsiyalar ishlab chiqish; talabalarning o'quv materiallarini o'zlashtirish, mustaqil ishslash, kompyuterdan foydalanish ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash. Naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarida mustaqil ishlarni auditoriyada va uyda bajarish mumkin. Auditoriyada bajariladigan mustaqil ishlarni professor-o'qituvchi tashkil etadi. Talabalar topshiriqlarni mustaqil bajaradi. O'qituvchi talabalarning topshiriqni qanday bajarishini nazorat qilib turadi. Uyda bajaradigan mustaqil ta'lim ma'lum maqsadda tashkil etiladi. Bunda qo'shimcha adabiyotlardan keng foydalaniladi. Talabalarning mustaqil ta'limi natijasi ularning to'plagan balliga qarab baholanadi. Semestr oxirida talabalar mustaqil ishlarni

bajarish bo‘yicha to‘plagan ballar yig‘indisi umumiy ballning 55 foizidan kam bo‘lmasligi kerak. Aks holda, talaba topshiriqlarni bajarmagan hisoblanadi. Bunday talaba bilan individual ishslashga to‘g‘ri keladi.

## **1.4-§. Naqqoshlik to‘garagi mashg‘ulotlarining mazmuni va o‘quvchilar bajaradigan amaliy ishlarning ahamiyati**

San’at kollejlarida amalda bo‘lgan dasturlarga asosan naqqoshlik san’ati to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish ishlari bo‘yicha bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ushbu to‘garak mashg‘ulotlarida naqqoshlik san’ati tarixi va uning maktablarini bilish, oddiy naqshdan tortib murakkab kompozitsiyalarni bajarishga o‘rgatish; naqqoshlik san’atini o‘rganish orqali talabalarni ma’naviy, axloqiy, estetik, vatanparvarlik, ruhda tarbiyalash, hayotdagi va san’atdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilish va ularni o‘z qo‘llari bilan yarata olishga o‘rgatish kabi mavzularni o‘z ichiga oladi.

Naqqoshlik san’ati to‘garagi mashg‘ulotlari o‘z oldiga quyidagi aniq maqsadlarni qo‘yadi:

- o‘quvchilarda naqqoshlik san’ati, tarixi, texnologiyasi, oddiy naqsh namunalaridan tortib to‘yog‘och buyumlarini bezashgacha bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

- naqqoshlik san’atini o‘rganish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish;
- naqqoshlik darslari asosida Sharq amaliy san’atining go‘zalligi, falsafiy, ruhiy va tarbiyaviy qirralari bilan tanishtirish;

- naqqoshlik san’atining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rgatish;
- umum ta’lim maktablari va qo‘sishimcha ta’lim muassalarida naqqoshlik san’ati mazmuni hamda maqsadini yoritib berish;
- umum ta’lim maktablarida naqqoshlikdan mustaqil ishlashga o‘rgatish;
- usta va shogird odobi hamda milliy an’analarni davom ettirishga o‘rgatish;
- talabalarga axloqiy, g‘oyaviy, mehnat va estetik tarbiya berish.

«Naqqoshlik» to‘garagi mashg‘ulotlarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- o‘quvchilarga naqqoshlik san’ati tarixi, uning maktablari va namoyandalari haqida tushuncha berish;

- naqqoshlikda ishlatilatiladigan asbob-uskuna va materiallar bilan tanishtirish va qanday foydalanishni o‘rgatish;
- oddiy naqsh namunalaridan tortib to yog‘och buyumlar va turli inshoatlarni bezashgacha bo‘lgan ko‘nikma-malakalarni shakllantirish;
- talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish;
- sharqona ustoz va shogird an’analarini o‘rganish;
- zamonaviy texnalogiyalardan (kompyuter) o‘rinli foydalanish ;

Naqqoshlik san’ati to‘garagi mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘quvchilarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

*«Naqqoshlik» to‘garagi mashg‘ulotlari bo‘yicha talaba quyidagi bilimlarni egallagan bo‘lishi zarur;*

- naqqoshlik san’ati maqsad va vazifalari;
- o‘quv tarbiya jarayonida fanning tutgan roli;
- asbob-uskuna materiallarini ishga tayyorlash va ishlatish;
- kompozitsiya, rang, kolorit;
- eng sodda naqsh elementlari va naqsh kompozitsiyalarini chizish;
- yog‘och buyumlarni naqshlash;
- badiiy loyihalash va bino bezash;
- naqqoshlikda xalq amaliy san’ati turlaridan foydalanish.

Talabalar bu to‘garagi mashg‘ulotlari bo‘yicha quyidagi ***ko‘nikmalarni hosil qilgan bo‘lishi lozim;***

- ishlatiladigan asbob-uskunalar va materiallardan to‘g‘ri foydalanish;
- naqsh elementlarini yoddan chiza olish;
- elementlar yig‘indisidan turli naqsh kompozitsiyalari (islimi, girih, guli girih va x.k) tuzish jarayoni;

O‘quvchilar quyidagi ***malakalarni hosil qilishi va amalda qo‘llay olishi kerak.***

- naqsh kompozitsiyasini sifatli ranglash va pardozlash;
- har qanday yuzaga mos ravishda naqsh kompozitsiyasi tuza olish;
- Badiiy loyihalash. Yog‘och buyumlarni naqshlash va bino bezagi

Naqqoshlik san'atining ishlab chiqarishdagi o'rni.

Amaliy san'atda naqqoshlik xalqimizning milliy ma'naviyati sifatida buniyodkorlik ayniqlas, milliy me'morchilikning ajralmas qismidir.

Tarixiy va boy an'analarga suyangan holda xalq san'atini rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hamda, yangi zamonaviy binolarni milliy ruhda buniyod etishda san'at maktablarini o'rganish, mashhur xalq ustalari ijodlarini davom ettirish, izlanish va hayotga tadbiq etish bilan badiiy asarlarni ishlab chiqarishni tashkil etadi. Shuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, ishlab chiqarish tizimining ajralmas bo'g'inidir.

Naqqoshlik san'ati to'garagi mashg'ulotlarida o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.

«Naqqoshlik» to'garagi mashg'ulotlarida shu san'atga oid turli adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar, zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish. Yangi axborot texnologiyalarini qo'llash.

Naqqoshlik to'garagi mashg'ulotlarini yanada samarali o'tilishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- darslarda yangi pedagogik texnologayalardan o'rinni foydalanish;
- ta'limning zamonaviy texnikaviy vositalarini qo'llash;
- darslarda xalq og'zaki ijodi namunalari, usta-shogird an'analaridan keng foydalanish;
- talabalar ishlaridan ko'rgazmalar qilish;
- ko'rgazmali qurollardan foydalanish;
- talabalarni o'z kasbiga qiziqtirish yo'llaridan unumli foydalanish;
- talabalarning individual xususiyatlarini, universitetning moddiy bazasini hisobga olish;
- naqqoshlikda ishlatiladigan atamalarning lug'aviy ma'nosini atroficha o'rganish va boshqalar.

To'garak mashg'ulotlarining nazariy mazmuni.

Naqqoshlik san'ati va uning tarixi.

Naqqoshlik san'ati fanining maqsadi va vazifalari. Naqqoshlik san'tining

inson hayotida tutgan o‘rni. Naqqoshlik san’atining kelib chiqishi, rivojlanishi. Naqqoshlik maktablari va ularning namoyandalari. Naqqoshlikka oid adabiyotlar.

Naqqoshlikda ishlataladigan asbob-uskunalar va materiallar.

Naqqoshlik mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan xonani jihozlash, ishlataladigan materiallar va asboblar: qog‘oz, har xil qattiqlik va yumshoqlikdagi qora qalamlar, o‘chirg‘ich, chizg‘ich, porgor, albom, mo‘yqalam, bo‘yoqlar, bo‘yoq qorish uchun idishlar, suv idishi, korjoma, palitra va b. Naqqoshlikda ishlataladigan materiallar. Ustaxonalarda texnika xavfsizligi, yong‘indan saqlash qoidalari.

Usta va shogird odobi.

Hunarmadchilik odobi tarixi, hunarmandlar mahallalari. «Ustoz-shogird» an’analari asosida naqqoshlik hunarining o‘rgatilishi. Ustoz odobi, shogird odobi. Ustoz va shogirdning shaxsiy va kasbiy fazilatlari mezoni.

To‘garak mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarida talabalar oddiy naqsh elementlarini chizishdan to murakkab, turli hajmli buyumlarga naqsh kompozitsiyasi tuzish va pardozlashgacha bo‘lgan vazifalarni o‘rganadilar. Hamda, yangi texnologiyalardan foydalanib interer va ekstererni bezash uchun naqsh kompozitsiyalari chiza olish malakalariga ega bo‘ladilar.

Amaliy mashg‘ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Naqsh elementlarini chizish
- 2.O‘simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa naqshlar.
- 3.Oddiy naqsh namunalarini chizish. (1- 10 gullar).
- 4.Rangshunoslik va bo‘yoqlardan foydalanish texnologiyasi.
- 5.Oddiy naqsh namunalarini bo‘yash.
- 6.Naqsh tuzishning geometrik asoslari.
- 7.Sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish va bo‘yash.
- 8.Uy-ro‘zg‘or buyumlarini bezash.
- 9.Murakkab hajmli buyumlarni badiiy bezash.

10.O‘zbek milliy binolarining inter’eri va ekster’erini badiiy bezash.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar nazariy olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy san’at namunalarini bajarish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek darslik, o‘quv qo‘llanmalar, ko‘rgazmali qurollar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlash, ilmiy maqolalar va tezislar chop etish bilan ularning bilimlarini oshirish, mustaqil ijodiy ishlar bo‘yicha ko‘rgazmali ko‘riklar tashkil etish va boshqalar tavsiya etiladi.

Dasturning informatsion - uslubiy ta’minoti

Mazkur to‘garak mashg‘ulotlarini o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

-naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarining nazariy bo‘limiga tegishli ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida elektron-didaktik texnologiyalaridan;

-naqqoshlikning naqsh chizish, kompozitsiya tuzish, materiallar bilan ishlash texnologiyasi, oddiy va murakkab kompozitsiyalarini tuzish va ranglash, pardozlash mavzularida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash, klaster pedagogik texnologiyalardan;

-oddiy va murakkab naqsh elementlari, namunalari, naqsh kompozitsiyalarini tuzishda taqsim va o‘lcham olish, naqsh kompozitsiyalarining asosiy harakterli bo‘laklari (taxsim), fasad, intererga kompozitsiya chizish, o‘lcham olish, reja va loyiha tuzishda kichik guruhlar musobaqalari, ijodiy fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutilgan.

Naqqoshlik to‘garak mashg‘ulotlarining amaldagi dasturi tahlili shuni ko‘rsatadiki, dasturda talabalarga naqqoshlik mashg‘ulotlarini tashkil qilish, xususan naqsh kompozitsiyasi tuzish, ranglash va pardozlash interer va ekstererda badiiy bezash ishlari asoslariga o‘rgatish ko‘zda tutilgan.

Amaliy mashg‘ulotlarda oddiy va murakkab naqsh kompozitsiyalar bajarish, yangi shakldagi naqsh eskizlarini bajarish, esdalik, sovg‘a yoki yodgorlik

turkumidagi buyumlar loyihalarini bajarish hamda inter'er va ekster'er fragmentlarini naqshlash bo'yicha topshiriqlarni bajarish tavsiya qilingan.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda dastur va darslik mualliflari birinchi navbatda ta'lim tizimidagi yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish zaruriyatlarini e'tibordan chetda qoldirganlar. Shu sohadan talabalarga nazariy ma'lumotlarning o'rgatilmasligi, kompyuter texnologiyalari yordamida zamonaviy topshiriqlarning bajarilmasligi kurs mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mashg'ulotlarda bezatilayotgan biror-bir yuzada naqshlardan o'rinni foydalanishning ahamiyati katta. Naqqoshlik san'atida naqshlardan, ayniqsa milliy naqqoshlik namunalaridan foydalanish, naqsh kompozitsiyalarini bajarish bo'yicha umumiy tarzdagi ma'lumotlarni kiritilishi zarur.

O'zbek ustalarining monumental bezak va amaliy san'atga oid asarlarida xalq madaniyati va turmushi o'z aksini topgan. San'atning bu turi uzoq yillar davomida takomillashib keldi va bugungi kunda ham yosh avlodni milliy an'analar ruhida, estetik ruhda tarbiyalashda, milliy qadriyatlarimizni o'rganishda salmoqli o'rin tutadi.

Rang-barang naqshlar, asrlar osha yuzaga kelgan nafosat durdonalari, bezaklar kabi qadimiy o'ziga xos san'at namunalari, Varaxsha, Bolaliktepa, Tuproqqa'l'a, Afrosiyob saroylaridagi devoriy yozuv va naqshlar hamda XIX – XX asrga oid nafis uy-ro'zg'or buyumlari, ularni tayyorlashdagi milliy an'analar kabi ko'plab xususiyatlari fan dasturlaridan chetda qolib kelmoqda. Bu bo'shliqni qisman bo'lsa ham badiiy bezak san'ati mashg'ulotlarida to'ldirilishi talabalarda milliy an'analarga xurmat, milliy qadriyatlar ruhidagi tarbiyasida muhim element bo'lib qo'shilishi mumkin.

## **I.5-§. To‘garak mashg’ulotlarida naqqoshik texnologiyasi, asbob- uskunalar, materiallar va ulardan foydalanish**

Mashg’ulotni boshlashdan avval dars uchun maxsus xona jihozlanishi zarur. Jihozlar mashg’ulotni metodik va didaktik jihatdan to‘g’ri tashkil etishni ta’minlaydi va darsning samaradorligini oshiradi. Xona keng derazali bo‘lib, unga quyosh nuri chap tomondan tushishi zarur. Yorug’lik chap tarafdan tushib tursa, bolalarning ko‘rish qobiliyati susaymaydi. Ularning umurtqa pog’onasi qiyshaymasligi uchun stol-stullar bolalarning bo‘yi va yoshiga munosib bo‘lishi zarur. Xona doim quruq, toza bo‘lishi xarorati (18-20 gradus) saqlanish kerak. O‘qituvchi talabalar ishi ustidan to‘la nazorat qilib turishi va har bir talaba bilan individual ishlay olishi uchun xonada to‘la imkoniyat yaratilishi lozim. Xonada o‘quv qurollari va materiallar, ko‘rgazma materiallar hamda talabalar ishlarini saqlash uchun shkaf yoki tokchalar bo‘lishi zarur.

Talabalar mashg’ulot paytida gavdalarini to‘g’ri tutib o‘tirish hamda asbob- uskunalardan foydalanishda metodik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerakligi tushuntiriladi va ko‘rsatiladi.

Naqqoshlik san’ati asarlarini tahlil qilishda, xalq ustalarining asarlarini, ularning ijodiy faoliyatlaridagi ayrim davrlarni, ustalar ish uslubini qiyoslab, ularning bir-biridan farqini ko‘rsatishda texnik vositalardan foydalanish katta samara beradi. Bunday texnik vositalarga epidaskop, filmoskop, kinoproektor va diaproektor, magnitofon, telvizor, kompyuter va boshqalar kiradi. Naqqoshlik xonasida bu vositalarning bo‘lishi maqsadga muvofikdir.

Texnik vositalardan to‘g’ri va unumli foydalanish o‘quvchi-talabalarda talabalarda san’atga katta qiziqish uyg’otadi, ularda ijodkorlik va faollikni orttiradi. Ma’lumki, bular o‘z navbatida mashg’ulotlarning mazmunli olib borilishiga yordam beradi. Shuningdek, ko‘rsatmalilik yordamida o‘tkazilgan mashg’ulotlar talabalarda fikrlash, narsa va hodisalarini bir-biriga taqqoslash, ular o‘rtasidagi umumiylig yoki tafovutni aniqlash, o‘tilgan mavzuni uzoq vaqt esda olib qolish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Naqsh chizish uchun yaxshi sifatli rasm daftari, albom va butun oq "vatman", o'rtacha yumshoqlikdagi oddiy qora qalam, yumshoq oq yoki ko'k o'chirgich, uchburchakli yoki to'g'ri chizg'ichlar, sirkul, 1 dan 10 gacha nomerli har xil mo'yqalam(kist)lar kerakli bo'yoq turlari: quruq bo'yoq, mineral bo'yoq, moy bo'yoqlar, guash, tempera bo'yoqlari, bo'yoq qorish uchun idishchalar yoki bankachalar, aralashtirish uchun tayoqchalar mavjud bo'lishi lozim.

Odatda, naqsh chizish uchun yumshoq va o'rtacha yumshoqlikdagi M, TM yoki N, NV kabi belgili qalam turlaridan foydalaniladi. Qattiq qalamlar qog'ozni tilib yuboradi va o'chirganda iz qoldiradi. Haddan tashqari yumshoq qalam bilan ham naqsh chizish yaramaydi, u bo'yalib ketadi.

Qalamni ishga tayyorlashga alohida ahamiyat berish kerak. Qalam uchini chiqarishda yog'och qismi 15-20 mm, grafit qismi taxminan 5-6 mm ochiladi.

Chiziladigan chiziqlarni barmoqlar to'sib qolmasligi uchun qalamning ochilgan uchidan sal balandroqdan uch barmoq bilan ushlanadi. Qattiq qisib ushlamaslik kerak, bularning hammasini muallim ko'rsatib tushuntiradi.

Chizilgan naqshning markazini aniq belgilash va ramkalar hosil qilishda to'g'ri va uchburchakli chizg'ichdan, har xil o'lchamdagи aylanalar chizishda va ularni teng bo'laklarga bo'lishda sirkuldan foydalaniladi.

Naqshga bo'yoq yaxshi mo'yqalamlar bilan surtiladi. Mo'yqalamlarning ishga yaroqlisi quyidagicha tanlab olinadi: uni toza suvga solib silkitiladi, agar mo'yqalamning uchi birikib ingichka holga kelsa, u ishga yaroqli, to'zib tursa, yaroqsizdir.

Mo'yqalamlar bo'rsiq, suvsar, olmaxon kabi xayvonlar yungidan tayyorланади. Biz bo'rsiq yungidan yasalgan 1 dan 10 gacha raqamli mo'yqalamlardan foydalanishni tavsiya etamiz.

**1. Siyoh mo'yqalam** - 1,2,3 raqamli mo'yqalamlar bo'lib, axta yordamida naqsh tushirilgandan so'ng ularni yurgizib chiqish va gullar tortishda ishlatiladi. 4,5 raqamli mo'yqalamlar esa band va marg'o'lalarni ranglashda qo'llaniladi.

**2. Obi mo‘yqalam** -6,7 raqamli mo‘yqalamlar bo‘lib, ular barg, gul va kichik yuzlarni ranglash hamda naqsh kompozitsiyalarini chekkalarini (ramkalarni) yurgizib chiqish uchun ishlataladi.

**3.Mola mo‘yqalamlari** - 8,9,10 raqamli mo‘yqalamlar bo‘lib, katta barg, band, gullar va naqshlar tagiga (katta zamin, kichik zaminga) rang berish uchun foydalaniladi.

Naqqoshlikda ishlataladigan bo‘yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo‘yoq, guash, akvarel, emulsiya, bo‘yoq, mineral bo‘yoq, moybo‘yoq, tempera bo‘yoqlari. Naqqoshlik mashg’ulotlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan bo‘yoq guashdir. Guash kichik idishchalarda yoki alohida bankalarda bo‘lib, u suvda yaxshi eriydi. Guashning yana bir qulayligi shundaki, u bilan turli rangdagi qog’ozlar va yog’ochlarni ham bo‘yash, bir rangni ikkinchi rang bilan aralashtirib, uchinchi bir rang hosil qilish mumkin.

Har bir bo‘yoq alohida stakan yoki kichik idishchada tayyorlanadi, alohida tayoqcha bilan aralashtiriladi.

Bo‘yoq zarur suyuqlikda va tiniqlikda tayyorlanishi lozim. Bunda oq bo‘yojni boshqa bo‘yoqlar bilan aralashtirib, kerakli rangni topa bilish muhim axamiyatga ega. Yog’och buyumlarni naqshlash uchun quyidagi asbob-uskuna va materiallar kerak: yog’och, belchalar, jilvir qog’oz, bo‘r, pista ko‘mir, sinka, doka, xitoy qog’ozi (kalka), nina, alif, elim, quruq kukunli bo‘yoqlar, lak, 1-20 nomerli mo‘yqalamlar, idishchalar va boshqalar. Naqsh muallimi o‘quvchilarga bu asboblarni ishga tayyorlash va ulardan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi.

Talabalar yog’och buyumlarni naqshlashlari uchun yog’och turlari va ularning xususiyatlarini bilishlari kerak. Chunki naqsh ishlashga har qanday yog’och ham yarayvermaydi. Naqsh ishlash uchun mos yog’och tanlangandan keyin unga dastlabki ishlov beriladi va yuza tekislanadi (shpaklyovka qilinadi) hamda tekislangan yuza bo‘yoq bilan bo‘yaladi (gruntovka qilinadi).

Naqsh ishslash uchun qayin, qora qayin, terak, qarag’ay, nok, yong’oq va boshqa yog’ochlar tanlanadi. Bu yog’ochlar tabiiy sharoitda yaxshi quritilgan va hech

qanday nuqson siz bo'lishi kerak. Yog'och yuzasiga mexanik ishlov berilgandan so'ng unga alif moyi yoki duradgorlik elimi suriladi.

**Xoka tayyorlash:** yupqa mato yoki ikki qavat dokaga maydalangan pistako'mir kukuni, sinka, bo'r yoki belil poroshogi solinadi va xaltacha xolida tugiladi. Shu bilan xoka tayyor bo'ladi.

**Axta tayyorlash:** yupqa xitoy qog'ozi (kalka) naqshlanadigan buyum yuzasiga qo'yilib, o'lchab olinadi va shu yuzaga mos axta tayyorlanadi. Naqshning yarim yoki chorak qismi qog'ozga yumshoq qora qalam bilan chiziladi.

Naqsh simmetrik o'qlari bo'yicha ikki, to'rt va undan ortiq bo'laklarga buklanadi. Naqshni yumshoq yostiqcha ustiga qo'yib, nusha ustini igna bilan teshib chiqiladi. Teshilgan nusha aniq va ravshan ko'rinishi uchun teshikchalar oralig'i naqsh nushasining yirik yoki maydaligiga qarab belgilanadi. Nusha qanchalik mayda bo'lsa, teshikchalar oralig'i shunchalik yaqin bo'lishi kerak. Shundan so'ng qog'oz yoyib yuborilganda butun naqsh (axta), ya'ni nusha hosil bo'ladi. Tayyorlangan axtalardan bir necha marotaba foydalaniladi, shuning uchun ular ehtiyyotlab saqlanadi. Axta yog'och yuzasiga yoyilib, ustidan xoka urib chiqiladi yoki bosib yurgiziladi. Yuzaga tushirilgan iz o'chib ketmasligi uchun naqsh yo'llari ustidan kichik raqamli mo'yqalam, qora yoki biror to'q rangdagi qalam bilan siyoh-qalam qilib chiqiladi. Chizilgan va naqshlangan yuzaning eng chetidan qora bo'yoq bilan 3-5 mm yo'g'onlikda obi tortiladi.

Yog'och yuzasiga tushirilgan naqshlarning izlari bo'yaladi va bo'yoqlar o'chib va surkalib ketmasligi uchun ustidan 2 yoki 3 marta laklab chiqiladi. Laklarning rangi toza va tiniq bo'lishi kerak. Laklangan buyumlar 18-22 gradusli, changsiz va quruq joyda saqlanadi.

## **1.6-§. To‘garak mashg’ulotlarida naqsh kompozitsiyalarini hosil qilish va uni ranglashda Corel Draw Graphics Suite dasturidan foydalanish.**

Corel Draw professional dasturi grafik ishlar uchun qulayliklar yaratadi. Bu dastur grafik dizayn sahifalarini ishlab chiqish, fotosuratlarni tahlil qilish va vektor animatsiyasi borasida ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Dastur sizga o‘z kompozitsiyangizni yaratishda va uni bajarishda kerak bo‘lgan harakatlarni bir necha bor qisqartiradi. Masalan, yangi elementlar: ellips, to‘g‘ri burchak va egri chiziqlar orqali «sichqoncha» tugmasining ikki martta bosilishi natijasida sizga kerakli o‘lcham va burilish burchagiga erishasiz. Shuningdek, siz qisqa vaqt ichida **Web animatsiyani** (sahifani harakatga keltirish) yaratishingiz mumkin.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzish va ranglashda **Corel Draw** professional grafik dasturi juda katta qulayliklar yaratadi. Ushbu dastur orqali qisqa vaqt ichida naqsh kompozitsiyasini turli tusda ranglab, o‘zingizga yoqqan koloritni tanlab olishingiz mumkin. Bu jarayonni girih naqsh kompozitsiyasini hosil qilish va ranglash orqali ko‘rib chiqamiz.

Corel Draw 11 dasturini ishga tushirish uchun uning yorlig‘i rasmini ish stolidan topib, ustiga sichqoncha ko‘rsatkichini olib kelinadi, sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosiladi. Agar bu rasmchani ekrandan topa olmasangiz quyida joylashgan masalalar ponelidagi «Pusk» menyusi ustiga sichqoncha ko‘rsatkichini olib kelib, chap tugmasini bir marta bosiladi. Quydagi oyna namoyon bo‘ladi. Namoyon bo‘lgan ro‘yxatdan «programma» qismini tanlang. O‘ng tomondagi ro‘yhatdan **Corel Draw 11** qatorini toping va ustiga sichqonchaning chap tugmasini bir martta bosing. Bu amallarni bajargandan so‘ng **Corel Draw 11** dasturi ishga tushadi. «Fayl» menyusidan «import» buyrug‘i tanlanadi va ekranda quydagi oyna namoyon bo‘ladi. Kerakli rasmni tanlab olib, uni «import» qilamiz. Ekranda tanlangan rasm, ya’ni girih kompozitsiyasi paydo bo‘ldi. «Masshtab» tugmachasi orqali girih naqshining bir bo‘lagi kattalashtirib olinadi. Shu bo‘lakni «instrument» menyusidagi «svobodnaya ruka» ish quroli bilan chizib olinadi. Chizilgan chiziqlar birikmasini «redaktirovat» menyusidagi «dublirovat» buyrug‘i orqali ko‘paytirib, keyin ularni biriktirib

olamiz. Quyidagi giriҳ kompozitsiyasi hosil bo‘ladi. Biriktirish **Shrift** orqali menyudagi **«gruppa»** tugmasi bilan bajariladi. Keyin **«effekt»** menyusidagi **«kontur»** ochiladi va **«sdvig»**ga kerakli o‘lcham qo‘yilib, **«prinyatъ»** tugmasi bosiladi. Shunda giriҳ kompozitsiyasi qalinligi hosil bo‘ladi. So‘ngra **«komponavat»** menyusidagi **«razbit na chasti»** buyrug‘i bajariladi, va o‘rtadagi chiziқ belgilab olib tashlanadi. Keyin kompozitsiyaning chetiga hoshiya chizib, uni **«Shift»** orqali giriҳga biriktiriladi va menyudagi **«kombinirovat»** tugmachasi bosiladi. Endi xoxlangan rang piktogrammassi bosiladi. Mana giriҳ kompozitsiyasi bir usulda ranglandi.

Ranglashning yana bir usuli: obekt tanlanib, **«Shift»** orqali fon ham belgilab olinadi. Menyudan **«obrezka»** tugmasi bosiladi. So‘ngra obektni olib tashlaymiz va zaminni (fonni) belgilab olamiz. Menyudan **«razbit na chasti»** tugmasi bosiladi. So‘ngra giriҳning har bir bo‘laklari turli rangda bo‘yaladi. Nihoyat biz xoxlagan koloritdagi giriҳ kompozitsiyasi hosil bo‘ldi.

## **II-BOB. MILLIY USLUBDAGI SANDIQLARNI NAQSHLASH TEXNOLOGIYASI VA BOSQICHLARI**

### **2.1-§. Naqshlanadigan buyumlarning turlari va ularning tuzilishi**

Qadimdan naqshlanadigan buyumlar turmushimizda keng qo'llanilib kelingan. Bulardan o'yma ramka, qutichalar, o'yma laganlar, kursi va xontaxtalar, binolar uchun bezaklarni alohida o'rin egallaydi.

Ramkalar yog'ochdan yasalib, turli maqsadda ishlatiladi. Ya'ni moybo'yoq bilan ishlangan tasviriylar san'at asarlari, portretlarning o'lchamlariga moslab yasaladi. Bunday ramkalarga odatda bir xil bo'yoq yoki lok surtib qo'yiladi.

Suratga olingan portretlar va yig'ma foto rasmlar uchunguash bo'yog'i bilan naqshlangan ramkalar ishlatiladi. Ramkalar 18x30, 30x40, 40x50 kabi standart o'lchamda buladi. Ayrim vaqtida esa rasmlarning o'lchamiga ko'ra ishlanishi ham mumkin.

Ramkalarning kishilar hayotidagi roli juda katta. Chunki har bir xonadonga kirsangiz uyning to'rida, ya'ni yuqori qismida ramkaga olingan portret yoki chiroyli rasm osig'liq turganini ko'ramiz. Bir xil bo'yoq bilan ishlanadigan ramkalar odatda yumshoq yog'ochdan (arg'uvon yoki qarag'aydan) yasaladi. Guash bo'yog'i bilan bezatiladigan ramkalar quruq qarag'ay va arg'uvon yog'ochidan ishlanishi kerak.

O'tgan davrlarda qutichalar zeb-ziyatlarni saqlaydigan buyum sifatida ishlatilar edi. Hozirgi vaqtda esa o'sha vaqtda yasalgan qutichalar san'at durdonalari sifatida muzeylarda saqlanadi. O'yma qutichalarning o'rtacha kattalikdagi o'lchamlari eni 20 sm, bo'yi 30 sm, balandligi 10 sm bo'ladi. Bu o'lchamlar chegaralangan emas, qutichalarni bundan kattaroq yoki kichikroq o'lchamlarda ishlasa ham bo'ladi

O'yma qutichalar uchun yog'och materialini tanlash katta ahamiyatga ega, ishning sifatli chiqishi ham shunga bog'liqdir. Buning uchun ko'zsiz, darz ketmagan, benuqson hamda rangi bir xil yog'ochlarni tanlash lozim. O'yma qutichalar uchun eskiz bo'lsa, shu eskiz o'lchami asosida quticha detallari tayyorlanadi va ular yig'ilib quticha yasaladi.

Agar qutichaning o‘zi tayyor bo‘lsa, shu quticha asosida eskiz tayyorlab, naqsh gullari chizilib, o‘yiladi. “Lola islimi” naqshi asosan ramkalarni va qutichalarning yuzini bezatishda ishlatiladi. “Bofta islimi” naqshlar, sakkiz, olti, to‘rt qirrali qutichalarning ust taxtalarining yuzini bezatish uchun ishlatiladi.

Murakkab naqshlar o‘simpliksimon va geometrik shakllardan tashkil topadi. Ikki qavatlari qilib o‘yilgan murakkab islimi naqshlarga “Muqarnos” deyilib, ular qattiq yog‘ochlarga o‘yiladi. Xorazm, Samarqand ustalari “Islimi muqarrari” deb ataydigan naqshlarni eshik va darvozalarning dilalarini, ustunlarni o‘yib bezashda qo‘llanganlar. Bu naqshni tuzishda islimi yo‘llarning bir-birlari orasidan o‘tishi, marg‘ula va barglarning turli shakllari uning anchagina murakkabligini bildiradi. Bu xildagi naqshlar 10mm dan 20 mm gacha chuqurlikda o‘yiladi.

Naqshning tuzilishi murakkab bo‘lganligi uchun uni o‘yishda har xil tuzilishdagi iskana qalamlar ishlatiladi. Ayrim murakkab naqshlar zamini chekilmasdan tekis va ko‘rkam ko‘rinishi uchun qo‘shimcha yo‘llar, uzma chiziqlar chiqarib pardozlanadi.

Ishlanadigan buyum oddiy va yumshoq yog‘ochdan yasalgan bo‘lsa, ularga mayda naqsh ishlamasdan, yirik naqshlar ishlash lozim. Mayda buyumlarning yuzini bezatishda esa ko‘proq mayda naqshlardan foydalanish lozim. O‘yilgan buyumlar havo ta’sirida o‘zgarmasligi uchun loklanadi. O‘yilgan buyumning yuzini loklashdan oldin jilvirlash vaqtida o‘yma naqshlarning zaminiga tushib qolgan yog‘och zarralarini yumshoq cho‘tka bilan tozalanadi. Loklash ishi sifatli bo‘lishi uchun buyum ikki marta loklanishi va loklash orasida bir-ikki sutka vaqt o‘tishi lozim. Talabalar murakkab naqshlarning tuzilishi va ularni chizishni bilib olganlaridan keyin bunday naqshlar qo‘llaniladigan buyumlarni tayyorlash va o‘yishga kirishishlari mumkin.

Talabalar murakkab naqshlarning tuzilishi va ularni chizishni bilib olganlaridan keyin bunday naqshlar qo‘llaniladigan buyumlarni tayyorlash va o‘yishga kirishishlari mumkin.

**Lagan o‘yish.** Laganlar asosan quyuq ovqatlar solinadigan buyum bo‘lib, sopoldan, chinnidan va yog‘ochdan yasaladi. Sopol laganlar loydan, chinni

laganlar oqtosh maydasidan yasalib, maxsus pechlarda pishiriladi. Pishirilgan laganga bo‘y whole berilib, naqsh gullar tushirib yana pechkada pishiriladi.

Yog‘ochdan tayyorlanadigan laganlar alohida o‘yish mahoratini talab etadi. Buning uchun yaxshi quritilgan ko‘zsiz, enli taxtani yog‘och yo‘nuvchi tokarlik stanogida yo‘nib, yumaloq shaklga keltiriladi va ichki qismi botiqroq qilib yo‘niladi, shu tariqa lagan shakli yuzaga keladi. Tayyor bo‘lgan buyumning yuziga axta yordamida naqsh tushiriladi.

Axta esa quyidagicha tayyorlanadi: naqsh tushiriladigan buyum yuzining hajmiga qarab axtaga mo‘ljallangan shaldiroq qog‘oz (kal’ka) kesiladi. Chiziladigan naqshni bo‘laklariga va tuzilishi simmetriyasiga qarab ikki, to‘rt, sakkiz bu qalam bilan chiziladi. Gul chizig‘ining ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Har bir teshikning oralig‘i ikki mm dan oshmasligi shart. Axtani naqsh tushiriladigan buyumning ustiga yozib, chap qo‘l bilan ushlab o‘ng qo‘lga ikki qavat dokaga o‘ralgan oq yoki qora kukun qog‘ozining ustidan bir oz silqitib bosib suriladi. Buyumning yuzida nuqtalar ko‘rinishida naqsh yo‘llarining izi qoladi. Bu izlar ustidan qora qalam birga chizib chiqamiz. Chizilgan naqshga kerakli o‘yma qalamlar tanlanib, naqsh chetlari kesib chiqiladi va zamin o‘yiladi. O‘yilgan naqshlarning tagi chakichlab pardozlanadi.

**Quticha yasash.** Yasaladigan qutichalar katta hajmda bo‘lmasligi kerak. Ularning o‘lchami taxminan shunday, ya’ni eni 10 sm, bo‘yi 20 sm bo‘lishi mumkin. Qutichaning ichki tomoni katakchalarga bo‘linsa turli buyumlarni alohida-alohida qo‘yish mumkin.

Dori qutichasini yasash. Dori qutichasining eshiklari oynali bo‘lishi lozim. Uni duradgorlik mashg‘ulotlarida, to‘garak o‘tiladigan dars jarayonida yasash mumkin. Dori qutichasi ham o‘yma lagan singari axta tayyorlanib, axta yordamida gul tushirib o‘yiladigan, chakichlanib, pardozlanadi. Dori qutining yoni va yuqori qismi berilgan.

**O‘yma kursicha.** Kursi stullar har xil shaklda bo‘lib, uch qirrali, olti qirrali bo‘ladi.

Kursichilar uchun bir xil rangli ko‘zsiz quruq yog‘och tanlanadi. Buyum yasashdan oldin yog‘ochlarga arra va randalar yordamida ishlov beriladi. Kursicha murakkab birikmalar yordamida ishlov beriladi. Kursicha murakkab birikmalar yordamida yig‘ilib, biriktiriladi. Naqsh tushirish yo‘llari dori quti va o‘yma laganlar singari axta yordamida gul tushirib o‘yiladi hamda chakichlab pardozlanadi.

**Medalyonlarni o‘yish.** Medalyon – italiyancha so‘z bo‘lib, “medal” ma’nosini anglatadi. Medalyonlar ko‘pincha doira yoki oval shaklida ishlanadigan yassi quticha, ziynat buyumi, yassi g‘ilof bo‘lib, ichida ko‘pincha rasm ishlangan bo‘ladi. Uning sirti chiroyli tasvir (rasm, naqsh) bilan bezatiladi. Medalyon nozik zanjir bilan taqib yuriladi. Dekorativ amaliy san’at sohasida doira yoki oval shaklida ishlangan relef naqshlar ham shu nom bilan ataladi.

Medalyon ishslash yog‘och o‘ymakorligining nozik sir-asrorlarini qo‘llash lozimligini taqozo etadi. Ular shakliga ko‘ra to‘g‘ri to‘rburchak, kvadrat, doira, ovalsimon, 6, 8 qirrali bo‘lishi mumkin. Ularga ishlanadigan naqshlar ham turlichay tanlanadi.

Yog‘ochga qanday naqsh o‘yilishi yog‘ochning tusiga, qattiq va yumshoqligiga qarab belgilanadi va eskiz chiziladi. O‘ymakorlikda o‘yiladigan gul har xil bo‘lib buyumlarning yuziga pardozsiz, sayoz qilib o‘yiladi. Bog‘dodi naqshlar ko‘pincha terak yog‘ochiga o‘yiladi.

Toshkent, Farg‘ona ustalari mayda buyumlarning yuzini bezatishda, ya’ni 6, 8 rahli stollar, qutichalar, bolalar kursilariga targari naqshlar ishlatadilar.

O‘simgilik elementlaridan tuzilgan naqshlar bir-biriga o‘xhash aylanma chiziqlar, barg, marg‘ullardan tashkil topadi. Bu naqshning o‘yilish chuqurligi 0.5 sm 1.5 sm gacha boradi. Bunga kapalak naqshi misol bo‘ladi.

Naqsh o‘yishni boshlaganda avval uning yarim gajak marg‘ulalari nova iskanalar bilan kesib chiqiladi. Keyin naqshning novdalari baliqsirti iskana bilan kesiladi. So‘ngra zamin iskana bilan naqsh zamini o‘yib olib tashlanadi. Naqsh zamini chiroyli ko‘rinishi uchun chekma iskana bilan sakichlab chiqiladi. Bu naqsh yo‘llarini aniq va ko‘rkam ko‘rsatadi.

## **2.2-§. Milliy uslubdagi sandiqlarga qo'llanilgan naqsh turlari, ularning tuzilishi va nomlanishi**

Xalq amaliy bezak san'ati buyumlari qatori milliy uslubdagi sandiqlarga naqshin badiiy bezak ishlash san'ati ham alohida o'rinni egallaydi. Yog'ochdan yasalgan milliy uslubdagi sandiqlarni ranglr orqali naqshlash-avloddan-avlodga o'tib kelayotgan noyob san'at turi hisoblanadi. U asrlar o'tishi bilan tobora sayqal topib, mukammallahib boradi, faqat uning qo'llanilish o'rni, vazifalari qisman o'zgarishi, bezak unsurlari (elementlari) talqinida turli-tuman yangiliklar sodir bo'lishi mumkin. Milliy uslubdagi sandiqlarni bezatilishining asosini naqsh ya'ni ma'lum tartib va izchillikda joylashtirilib tuzilgan yaxlit bezaklar tashkil qiladi. Naqshlar asosan, o'simlik dunyosi: novda, barg, gullar, mevalar, geometrik shakllar: uchburchak, to'rtburchak, oltiburchak, aylana kabilar va hayvonlar tasvirini naqqoshlar tomonidan badiiylashtirib hosil qilingan bezakdir.

Yog'ochdan yasalgan milliy uslubdagi sandiqlarga ham o'zining mazmuniga, ko'rinishiniga va tuzilishiga ko'ra-o'simliksimon (islimi), geometrik, gulli girix va ramziy turlarga bo'lib qo'llanilib kelinadi.

**O'simliksimon naqshlar-** tabiatdagi o'simlik dunyosidagi daraxt, gullarning bandlari, butalari, barglari, kurtak va g'uncha kabi qismlarini naqqosh tomonidan o'zlashtirilib, badiiylashtirilib olingan shakllarini ma'lum qonuniyatlar asosida ritmik takrorlanishidan hosil qilinadi.

**Geometrik naqshlar-** milliy uslubdagi sandiqlarning tuzilishiga qarab keng qo'llanilib kelinadi. U girih turkumidagi naqshlarni o'z ichiga oladi. Girih-chigal, tugun ma'nosini anglatib, murakkab handasiy naqsh turi hisoblanadi. Girihlar geometrik shakllar: uchburchak, to'rtburchak, oltiburchak, aylana va yoy hamda ko'pburchak kabilarni o'z tarkibiga olib, tuzilishi jihatidan to'g'ri chiziq, egri chiziq hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan guruhlarga bo'linadi. Girihlar ham uzlusiz rapportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir rapport o'z tuzilishiga ega bo'ladi.

**Gulli girih-** girix orasiga islamiy naqsh bilan to'ldirilgan murakkab naqsh turi.

**Ramziy naqsh-** shartli bezak; biror g'oya, tushuncha, hodisa va shakllarni

ifodalaydi, eslatadi. Bu naqsh davlat ramzları, yulduz, bug'doy va boshqa biror shartli shakllarni tasvirlaydi.

Qadimdan naqqoshlik san'at ida yog'ochdan milliy uslubdagi sandiqlarga qadama naqsh ishlash, naqsh qoplash san'ati chinakam gullab yashnaganligini ko'rsatuvchi ajoyib misollar bor. Xalq ustalari bu sohada bir talay ishlar qilishgan va zo'r san'at yaratishib kelishgan. Ana shunday benihoya ulkan san'at asarlaridagi naqshlar qanday mazmunga ega, qayerlarda qo'llaniladi va ularning chizilish texnologiyasi, o'ziga xos qonuniyatları nimalardan iborat?

Yuqorida tanishib chiqqan fikrlarni davomi sifatida endi milliy uslubdagi sandiqlarga qo'llaniladigan naqsh turlarining mazmuni, nomlanishi bilan tanishib chiqamiz.

Naqqoshlar tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalardagi har bir tasvirni sinchiklab ko'zdan kechirganimizda, uning zamirida ramziy ma'nolar yashiringanligi yaqqol ko'rindi. Ular oddiy yoki g'oyat murakkab naqsh namunalarida ham eng yaxshi ezgu tilaklarni aks ettiradilar. Xususan, naqshlardagi unsurlarda va ularda qo'llaniladigan ranglarda o'zlariga xos ma'nolar mujassamlashgan. Masalan, gulsafsar-osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, to'lqinsimon gul poyasi boylik va farovonlik timsoli, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda tabiatning bahor chog'ida uyg'onishini anglatadi. Ushbu ma'no va mazmunlar mujassamlashtirilib bunyod etilgan naqsh kompozitsiyalar naqqoshlarning ona tabiatga chuqur muhabbatlarini ifoda etib, ularning jo'shqin hayot bilan doim hamnafas ekanligini bildiradi. Shuningdek, naqshlar bilan bezash xalq tasavvurida tilsim, sehr-jodu, aqidalar, urf-odatlar va pand-nasihatlar bilan ham qorishib ketganligini ko'ramiz.

Har bir naqshning o'z nomi va mazmuni bo'ladi. Shunday ekan naqshlar naqshlanadigan buyumning shakli hamda qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tanlanaladi.

Masalan: turunj, islimiy, madohil, hoshiya, yaq raftor, lo'la hoshiya, islimiy guldona, hashti tufsar ruta, anorgul, morpech, islimiy guldona, islimiy madohil lamti, tufsor, sarkig'on tufsori holat, xonasi bo'rtma, xashti davra, chorsar, davri

sitora, shomdona yolpig‘ich, zanjira, yakka zanjira, ganch islamiy, islamiy parrok, oftoba, erkin islamiy, bodom, islamiy, gulli aylana islamiy, bargil islamiy, bargli raftor, mexrob, islamiy, patlis, gulli islamiy, 5-rahli girih, 5 – 10 rahli girih, shoxbarg, islamiy qo‘sh bargli islamiy lunabbatli girih, munabbati gul va boshqalar kiradi.

Morpetch – (tojikcha mor – ilon, pech o‘ralgan) ilon izi shaklidan iborat bo‘lgan islamiy hoshiya naqsh. Morpech ganchkorlikda takcha, namoyon izora chetlariga hamda naqqoshlikda esa eshik, namoyon izora stol, stul va boshqa narsalarning chetiga ishlanadi.

Milliy uslubdagagi sandiqlargaga qo‘llaniladigan naqshlardan biri ruta naqsh kompozitsiyasidir. Ruta – (ruscha – bordyur) ikki tamoniga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh. Chizilayotgan naqsh nusxasining xarakteriga qarab ketma-ket, to‘ntarma usullarda unalishi mumkin. Naqqosh-ruta naqsh kompozitsiyasini chizayotganda to‘ntarib takrorlaydi va axta yordamida aylantirib to‘liq kompozitsiyasini hosil qiladi. Ruta kompozitsiyasida bir yoki ikki ba’zan uch chiqish nuqtasi o‘rtada bo‘ladi (bo‘sh joylarni to‘ldirishda hizmat qiladi). Ketma-ket ulanuvchi rutalar bir ikki uch yo‘naluvli bo‘lishi mumkin.

Namoyon - forscha so‘z bo‘lib ko‘rinishi: manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon eng mukamallangan etuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon vaqelikning umumlashgan tasviriy obrazini o‘ziga aks etadi. Namoyon murakkab naqsh kompozitsiya turiga kirib uning o‘simgilimon geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud.

Har bir naqqoshlik maktabida namoyon naqsh kompozitsiyalari turlicha shaklda va o‘ziga xos uslubda ishlanadi. O‘zbek naqqoshlari manzarani aks etirishga ahamiyat berdilar, asosiy e’tiborni dinomikaga qaratadilar, gul, barg elementlar ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Umuman, aytganda namoyon naqsh kompozitsiyalari Buxoro, Samarqand va Toshkent shaharlari zamonaviy binolarida keng qo‘laniladi. U ko‘proq devorning yuza qismiga ulanadi, chetlariga bo‘rtma naqshlar o‘yiladi.

Azaldan milliy uslubdagagi sandiqlargaga ishlanadigan naqsh turlaridan yana biri

munabbat naqsh kompozitsiyalaridir. Munabbat-arabcha so‘zdan olingen bo‘lib o‘stirmoq degan ma’noni anglatadi. Asosi to‘g‘ri to‘rtburchakdan tashkil topib to‘rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbat naqsh kompozitsiyalaridan keng foydaliniladi.

Munabbat naqsh kompozitsiyalari O‘rta Osiyo naqsh kompozitsiyalarida ko‘p qo‘llaniladi. Naqqosh munabbat naqsh kompozitsiyalarini chizayotganda uning to‘rtadan bir qismini olib, bir bo‘lakka naqsh kompozitsiyani chizib, keyin esa axta (ulgi) yordamida to‘rt bo‘lakka tushirib chiqilib to‘liq munabbat naqsh kompozitsiyalari hosil qilinadi. Munabbat naqsh kompozitsiyalarining o‘simpliksimon, geometrik, ramziy va boshqa turlari bor. Bulardan munabbati mehrob munabbati bofta, munabbati islimiy, munabbati girix va boshqalarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Milliy uslubdagi sandiqlarning bezatilishida turunj naqsh kompozitsiyalari ham alohida o‘rin egallaydi. Turunj – arabcha limon degan ma’noni bildiradi. Ruscha medalion. Turunj naqsh kompozitsiyalarining ko‘rinishi aval shaklida bo‘lgani uchun uni shu nom bilan yuritiladi. Turunj naqsh kompozitsiyasi xech qanday naqshga ulanmay, muallaq turadigan naqsh kompozitsiyasi bo‘lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan.

Hozir uning doira 5 – 10 rahmi yulduz: aval, romb, elips shakllari mavjud. Ana shu tanishib chiqqan barcha naqsh kompozitsiyalarini shu bino ichki qismini bezatishidan keng qo‘llaniladi.

## **2.3-§. Milliy uslubdagi sandiqlarga moslab naqsh kompozitsiyalarini tuzish bosqichlari va qonuniyatlar**

Yuqoridagi fikrlarni davomi sifatida endi yog‘ochdan yasalgan milliy uslubdagi sandiqlarga qo‘llaniladigan naqsh turlarini tuzish bosqichlari va qonuniyatlar kabi ma’lumotlarni ko‘rsatib o‘tish ma’siliyati turadi.

Milliy uslubdagi sandiqlarga moslab ana shunday naqshlarni ishlashdan oldin, ularning ramziy ma’nosini va mazmunini anglab etgandan keyingina tabiatdan olingan ma’lum qonuniyatlar asosida naqsh kompozitsiyasini tuzish, ya’ni chizish geometriyasini nazariy, hamda amaliy puxta o‘zlashtirilishi zarur.

Har qanday yog‘ochdan yasalgan buyumlarni bezashda uning, tuzilishi chuqur o‘rganib, keyin unga mos naqsh turi va naqsh kompozitsiyasini tanlash, qo‘llash, o‘z – o‘zidan muhim ahamiyatga ega. Kichik xajmdagi kursichalarga sodda naqsh kompozitsiyalari turlaridan, katta hajmdagi kursichalarga esa murakkab yirikroq naqsh kompozitsiyalari qo‘llaniladi.

O‘zbek naqqoshllari asosan milliy uslubdagi sandiqlarni bezashda, juda aniq qunt bilan ishlashga harakat qilganlar. Nozik o‘simliksimon geometrik naqshdagi o‘zaro singishib ketgan novdalar, shohlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, - o‘zbek ustalarining ishlaridagi islimiy va girih naqshlarning klassik motivlari buyumning shakliga moslashgan. Tekis yuzalarni bezashda aniq sistema mavjud bo‘lgan. Bularning vertikal va gorizontal yo‘nalmalari o‘ziga xos tarzda qismlarga bo‘linishi o‘zbek an’anaviy qurilmalaridan kelib chiqqan. Ustalar mazkur sistemani buzmagan holda o‘zaro ohista qo‘shilib ketgan ajoyib medol’ionlar, simmetrik kataklar yoki gullangan shohlar turi guldstalar, gul tuvakdagi gullar, daraxtlar ba’zan hatto manzara bilan to‘ydirilgan chiroyni baland kalonnalarning g‘oyat hilma xil naqsh kompozitsiyalarini yaratganlar. Shuningdek, ular turli ko‘rinishdagi hoshiyalarni, uchburchakli o‘yiplardan iborat – eskiz bir maromda yugurib kelayotgandek tuyulladigan o‘simlik novdalaridan iborat enli hoshiya naqsh kompozitsiyalarini ishlaganlar.

Milliy uslubdagi sandiqlarning konstruktsiyalariga va detallariga tarkibiy bog‘langan naqsh kompozitsiyalar ishlanadigan naqsh kompozitsiyalarini tuzish

chizish qat’iy qonun-qoidalardan iborat bo‘ladi. Bu qonun-qoidalalar tabiatning o‘zidan olingan. O‘simpliklar faqat bir tomonga qarab o‘sadilar. Masalan, majnuntol, xuddi pastga qarab o‘sayotgandek tuyuladi, lekin harakatda esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bo‘lib, bir tomonlama yo‘nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshda o‘z aksini topgan. Usta chizadigan naqshlar shunchaki qog‘oz betini to‘ldirish emas balki, ongli ravishda tabiat va badiylik qonun-qoidalariiga amal qilgan holda manzara tasvirini chizish tushiniladi. Shuning uchun xalq amaliy san’at ining boshqa turlari qatori naqqoshlik san’ati ham eng qiyin va ma’suliyatli bosqich kompozitsiya nusxasini chizishdir. Agar naqsh kompozitsiyasi tabiat qonuniga zid bo‘lsa, ranglashda va pardozlashda har qancha yutuqqa erishilsa ham ish ko‘ngildagidek chiqmaydi. Naqsh kompozitsiyasini birdaniga qaraganda chiroyli ko‘rinadi, bir ozdan keyin naqsh nuqsonlari sezilib qoladi. Xo‘sh, kompozitsiyaning o‘zi nima?

**Kompozitsiya**-lotincha so‘z bo‘lib, to‘qish bir–biriga ma’lum tartibda joylashtirish, solishtirish ma’nosini anglatadi. Naqsh kompozitsiyasini ishslashda ritm, simmetriya, assimetriya, komponovka, doiraviy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiyligi, chiroyligini, pardozlarning va ranglarning uyg‘unligi kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi.

**Komponovka** (joylashtirish)- chizayotgan naqsh yoki biror tasvirni qog‘oz yoki biror yuzaga to‘g‘ri joylashtirishni tushinamiz.

**Simmetriya**-grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, o‘lchovlarning bir – biriga mosligi, tengligi, mutanosibligi kabi ma’nolarni anglatadi.

**Ritm** - kompozitsiyasini eng kuchli va harakterli asosi hisoblanadi. Ritm naqsh elementlarini ma’lum masofada bir tekisda takrorlanib kelishi bo‘lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go‘zal ko‘rinishi ta’minkaydi.

**Assimetriya** - kompozitsiyada simmetrik muvozanatning buzilish tushuniladi.

**Stilizatsiya**-tabiatdagi o‘simplik, hayvon odam va boshqalarni tuzilishini naqqosh tomonidan badiiy usulda umumlashtirib tasvirlashdir.

Naqsh kompozitsiyasini chizishda quyidagilarga qat’iy rioya qilish kerak:

1. Tanob yoki novda tagidan gul, g‘uncha bargni qoldirib tasvirlash

mumkin emas.

2. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash.
3. Taqsimda ortiqcha nusha chizib qo‘ymaslik
4. Tanobdan hech qachon gul, novda g‘uncha va boshqa o‘sib chiqmasligi:
5. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash.
6. Naqsh chiziladigan yuzaga moslab naqsh kompozitsiyasini tuzish.
7. Naqsh kompozitsiyasidagi zamin bo‘shliklarni nisbatini saqlash va hakazolarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Yuqoridagi qonun-qoidalarga bo‘y sungan holda milliy uslubdagi sandiqlar uchun naqsh kompozitsiya eskizlari tayyorlanadi va buyum yuzasiga axta yordamida tushiriladi, ranglash pardozlash bosqichlarini bajarishga tayyorlab qo‘yiladi.

## **2.4-§. Milliy uslubdagi sandiqlarga qo'llaniladigan naqsh kompozitsiyalariga rang tanlash, ranglash va pardozlash texnologiyasi**

Xar qanday buyum yuzasi uchun naqsh kompozitsiyalarini yoddan bemalol chizishni o'rganib olgandan so'ng, bo'yoqlar va rangshunoslik haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak.

Milliy uslubdagi sandiqlarga chiziladigan har qanday naqsh kompozitsiyasiga rang tanlashda o'ta kuchli e'tiborni qunt va malakani talab qiladi. Buning uchun buyumlar yuzasiga tushirilgan naqsh kompozitsiyalarining tuzilishiga qarab rang tanlash va bo'yash bosqichlari bajarilib boriladi.

Milliy uslubdagi sandiqlarga chizilgan naqsh kompozitsiyasini bo'yashdan oldin, unga ishlatiladigan rangli bo'yoqlar asosan guash, siqma akvarellarni tanlab yig'ib olishimiz kerak. Naqsh kompozitsiyasini bo'yashdan oldin qog'ozga palitrada ranglar koler tasvirlash mashq qilinadi. Guash juda suyuq bo'lsa naqsh yuzasi tekis bo'lmaydi. Agar guash juda quyuq bo'lsa mo'rt bo'lib ko'chib tushadi. Kolyor tayyorlashda chinni yoki plastmassa idishchalardan foydalaniladi. Har bir rangli guashga alohida- alohida yog'och kurakchalar ishlatiladi. Naqshlarni bo'yashda elementlarning aniqligiga, simmetrikligiga e'tibor berish, rang gammasiga, koloritiga, ranglarni bog'liqligiga va tiniqligiga, ko'zga yaqqol tashlanadigan dog'larning bo'lmasligi, naqshlarni toza va ozoda chiqishi, naqsh kompozitsiyasining ta'sirchanligiga bo'yoq qavatlarining tekis chiqishiga, guashъ texnologiyasiga qat'iy rioya qilish kerak.

Naqsh kompozitsiyasi biror gammada masalan, yashil, zangori, jigar rang, pushti, limon rang yoki boshqalarda bo'yaladigan bo'lsa, qaysi rang asosiy kolorit rang bo'lsa shu hukmron rangga bo'ysundiriladi. Naqshdagi qolgan har qanday ranglar shu rang gammasini buzmasligi kerak.

Naqsh kompozitsiyasini ishlashda garmoniya, faktura va kontrastga e'tibor berish kerak.

**Garmoniya**— grekcha so'zdan olingan bo'lib munosiblik, bog'liq bo'lish,muvofiqlik, degan ma'noni anglatadi. Naqqoshlikda naqshning o'lchami rangi, shakllari nisbatidagi eng chiroyli uzviylik.

**Faktura**– lotincha tuzilishi ishilov berish degan ma’noni bildirib naqsh yoki biror tasvirni ishlanadigan buyum sirtining tuzilishi va uning ishlovi.

**Konsrast**- fransuzcha keskin farq degani bo‘lib, ranglarning qarama-qarshi yoki ranglarni bir-biridan keskin farqi.

Milliy uslubdagi sandiqlar yuzasiga, axta yordamida tushurilib chiqilgan naqsh kompozitsiyalari quyidagi bosqichlarda bo‘yaladi.

- 1.Eng avvalo naqsh kompozitsiyasi zamini, ya’ni katta yuzalar.
- 2.Kichik yuzalar.
- 3.Barg g‘unchalari va boshqalarni.
- 4.Naqsh kompozitsiyasining gullari va barglari pardoz ya’ni targ‘il beriladi.

Ana shu bosqichlar to‘liq bajarilgandan keyin naqsh kompozitsiyasi mukammal tugalangan hisoblanadi. Yana bir narsani ya’ni naqsh kompozitsiyalari barg gullari, g‘uncha va barglarga pardoz ya’ni targ‘il berish texnikasini o‘zlashtirish talab qilinadi.

Pardozlash texnikasini ham quyidagi bosqichlarda bajariladi:

- 1.Parallel ingichka chiziq taroqlari.
- 2.Naqsh, barg va gullarning urug‘ va ganchchilarni tasvirlash.
- 3.Targ‘ilning o‘rniga edirma usullaridan foydaliniladi.

Edirma usuli ranglarni to‘qdan ochlanib ishlatish yo‘li bo‘lib, mo‘yqalam surkalgan rangli quruq suvli mo‘yqalamda asta edirib tarqatiladi.

- 4.Naqshlarining oq bandlari va obilari tortiladi.

Pardozlash bosqichlarining chiroyligi ishning muvaffaqiyatli chiqishiga yordam beradi.

## **2.5-§. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ish jarayoni**

Biz yuqorida milliy uslubdagi sandiqlarning tuzilishi, ularga qo'llaniladigan naqsh turlari, naqsh kompozitsiyalarining nomlanishi va ranglash, pardozlash qonuniyatlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqqanmiz. Endi olti qirrali kursiga dastlabki ishlov berish, naqshlashga tayyorlash, naqsh kompozitsiyasi eskizini tuzish va buyumga tushirish, ranglash, pardozlash bosqichlariga to'htalib o'tmoqchimiz.

Milliy uslubdagi sandiqlarga naqsh ishslash uchun avvalo tanlangan yog'och materialiga dastlabki ishlov berish ya'ni buyum yuzasini tekislash lozim. Chunki daslabki ishlov berilmasa buyum qancha chiroyli naqsh kompozitsiyalari bezalsada, buyum yuzasi g'adir-budir chiqib ish sifatsiz chiqadi.

Milliy uslubdagi sandiqlarga dastlabki ishlov berish yog'ochni rangsiz lak bilan grunt qilishdan boshlanadi. Chunki agarda yog'och rangsiz lak yordamida bo'yalmasa naqsh kompozitsiyasi tushirib bo'yalgandan keyin yog'och bo'yoqni ya'ni rangni shimb olib rangning tiniq chiqishini ta'minlamaydi. Buyum laklangandan keyin yoriq va teshik joylarini kley va bo'r aralashmasidan hosil qilingan shpaklevkadan foydalanib tekislab chiqiladi.

**Shpaklovka**-nemischa kurakcha, yuzalarni bo'yash hamda pardozlashdan oldin sirtni tekislash uchun suriladigan quyuq massa. U bo'r (mel) yog'och elimi alif moyi kabi moddalarni qo'shib tayyorlanadi. Yuzalarni shpatel yordamida quyuq massa surtib tekislashga shpaklevkalash deb yuritiladi. Shpaklovkani suyuqroq yoki quyuqroq qilib tayyorlashimiz qaysi joyga ishlatishimizga bog'liq. Shpaklovka ishlatishdan avval ikkita shpatel yordamida ozgina shpaklevkani obdon bir-biridan o'tkazib ezg'ilab, aralashtirib keyin kerakli joyga surtish boshlanadi. 3 xil shpatel yordamida buyum yuzaga bir tekis surtib chiqiladi va u qurigandan so'ng choklari ustidan 2-3 marta yana shpakleka surtiladi. U qurigandan so'ng o'rtacha va mayda donali qum qog'ozda silliqlanadi.

So'ng yog'och yelimini suvda eritib dokadan yoki mayda ko'zli elakdan o'tkazib yog'och sirtiga katta ya'ni 18-20 nomerli mo'yqalamda surkab chiqiladi.

Surkalgan yelim qurigandan so'ng oq guash bir tekisda surkab chiqiladi.

Qotgandan so'ng katta nomerli mo'yqalamda tekislab chiqiladi. Shu bosqichlarning barchasi to'la-to'kis bajarilgandan keyin sandiqlar yuzasiga moslab naqsh kompozitsiyasi eskizi chizila boshlandi.

Biz yuqoridagi bitiruv malakaviy ishining rejalarida yoritilgan naqsh kompozitsiyalarini tuzish qonuniyatlariga suyangan holda yog'ochdan yasalgan milliy uslubdagi sandiqlar yuzasiga moslab naqsh kompozitsiyasi tuzishga kirishildi.

Milliy uslubdagi sandiqlar yuzasiga moslab naqsh kompozitsiyasi eskizlari ustida izlanishlar olib borildi. Chizilgan bir nechta eskizlar ichidan eng ma'quli tanlab olinib pardozlash ko'zgusi yuzasiga axta (ulgi) yordamida tushirilib chiqildi.

Axta-naqsh yoki bir rasmni shaffof (kalka) qog'ozga chizib chiziq yo'llari igna bilan teshilib buyumga yoki biror sirtga tushirish uchun tayyorlangan andoza. Naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya o'qi bo'yicha shaffof qog'ozni ikkiga, to'rtga va hakazolarga bu'klanadi. Buklamani bir qismiga naqsh chiziladi. Naqshli shaffof qog'ozni yumshoq yostiqcha ustiga qo'yib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi.

Naqshni yirik va maydaligiga qarab igna tanlanadi. Ignan teshigi oralig'i naqshning mayda va yirikligiga bog'liqdir. Agar naqsh mayda bo'lsa igna oralig'idagi masofa shuncha yaqin bo'ladi. Naqsh nusxasini teshib bo'lgandan keyin shaffof qog'oz yoyilib yuboriladi, natijada axta hosil bo'ladi. Tayyor bo'lgan axtani buyum yuzasiga qo'yib ustidan xoka bosib yurgizib chiqiladi, natijada naqsh nusxasi milliy uslubdagi sandiqlar yuzasiga ko'chiriladi.

Milliy uslubdagi sandiqlarga naqsh kompozitsiyalari to'liq tushirilib chiqilgandan keyin ranglash ishlariga o'tildi.

Milliy uslubdagi sandiqlarni bo'yamasdan oldin qog'ozda eskizlarga ranglar tanlanib chiqildi va sandiqlarga ko'chirish ishlari olib borildi. Ranglar plasmassa va chinni idishlarda tayyorlanib chiqildi. Har bir rangga alohida-alohida yog'och kurakchalar ishlatildi.

Naqsh kompozitsiyalari rangini ishslashda bir gammaga yashil ranga bo'ysundirildi.

Milliy uslubdagi sandiqlar yuzasiga tushirilib chiqilgan naqsh kompozitsiyalar quyidagi bosqichlarda: eng avvalo naqshning zamini, ya’ni eng katta yuzalarni, keyin kichik yuzalar, so‘ngra barg, gul, g‘uncha va boshqalari naqshning bandlari bo‘yalib chiqildi. Naqsh kompozitsiyasini ranglash ishlari to‘liq tugagandan keyin pardozlash ya’ni targ‘il berish bosqichiga kirishildi. Naqsh gullari, g‘uncha va barglariga quyidagi ikki xil texnikada bezatildi:

- 1) parallel ingichka chiziq taroqlar yordamida;
- 2) barg va gullarning urug‘ va changchilarini tasvirlash yordamida.

Milliy uslubdagi sandiqlar yuzasiga ishlangan naqsh kompozitsiyasi to‘liq tugagandan keyin bo‘yoqlari yaxshilab qurigan naqshga yanada jilo berish maqsadida rangsiz lokdan foydalanib surkab chiqildi. Moyli loklar alifmoy pylonkalariga qaraganda yaxshi, tiniq, mustahkam va qattiq pylonka hosil qiladi.

Naqshlangan buyumga lok surtish qiyin jarayon emas. Masalan, yuzaga lok surtishda mo‘yqalam ikki xil yo‘nalishda bo‘yiga va eniga parallel qilib yurgiziladi.

Bu jarayon bir necha marta takrorlanadi va rangsiz lok yaxshilab quritildi. Shundan keyin oq tempera bilan obisi tortilib ish to‘liq yakunlandi.

## Xulosa

Respublikamizda hozirgi kunda san'at kollejlarida xalq amaliy san'ati turlarini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatilib kelinmoqda. Shuning uchun ham shu yo'nalishda yanada yangi ilmiy tadqiqot ishlariga yanada e'tiborni qaratilishiga olib kelinmoqda. O'tkazilayotgan tadqiqotning dolzarbliги hanuzgacha san'at kollejlarida talabalarning amaliy san'at turlari to'g'risida nazariy, amaliy bilimlarini oshirishga, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularning individual qiziqishlari va qobiliyatlarini ochilishiga ko'maklashuvchi kursning yo'qligi bilan belgilanadi. San'at kollejlaridagi xalq amaliy san'ati turlari, shuningdek naqqoshlik san'ati kabi mutaxassislik fanlarini o'qitilishidan maqsad, ma'lumki talabalarda bilim, malaka va ko'nikmalar bilan bir qatorda ijodkorlik ko'nikmalarini ham shakllantirishi zarur.

Talabalardagi ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish to'garak mashg'ulotlarining vazifasi deb qaralib, naqqoshlik san'ati to'garak mashg'ulotlariga unchalik e'tibor berilmaganligi yaqqol sezilib qolmoqda. Ayniqsa, san'at kollejalrida naqqoshlik to'garak mashg'ulotlari uslublarini o'rgatishni joriy qilishimiz kerak deb o'ylaymiz. Ma'lumki, hamma san'at kollejlarida barcha o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, to'garak mashg'ulotlarining o'quv soatini ko'paytirish, to'garaklarni ochish, ularni moddiy-texnika bazasini yaratish, hamda malakali mutaxassis o'qituvchilar bilan ta'minlash muammo echilmaydi. Shuning uchun ushbu tadqiqotimizning o'quv to'garak mashg'ulotlariga o'quv rejasida ajratilgan soatlar chegarasida, hamda o'rganiladigan fanlar mazmuni va strukturasi (tuzilishi)ni o'zgartirmasdan talabalarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarining uslubini o'rganish nuqtai nazardan o'rganib chiqdik. Shu bo'yicha tadqiqotning boblarida san'at kollejlarida naqqoshlik san'atini o'rgatishni nazariy asoslari, to'garak mashg'ulotlarining o'quv dasturlari, naqsh kompozitsiyalarini tuzish va ranglash bosqichlari, topshiriq variantlari ko'rsatib berildi. Shuning uchun naqqoshlik san'ati bo'yicha alohida to'garak mashg'ulotlari mazmunini ishlab chiqish, shu to'garak mashg'ulotlarida imkonli boricha mahalliy

naqsh uslublari bilan chuqurroq va kengroq qamrab olish va talabalarning mustaqil ishlab, individual qobiliyatlarining ochilishiga ko‘maklashish zarurligi isbotlandi. Pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi sohasidagi etakchi olimlarning ishlarini tahlil qilib, naqqoshlik san’ati bo‘yicha va unga yaqin sohalardagi maqjud adabiyotlar o‘rganilib, hamda naqqoshlik san’ati kursining o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda kursga qo‘yiladigan kontseptual talablar ishlab chiqildi.

Kontseptual talablarga javob beradigan naqqoshlik to‘garak mashg’ulotlarining mazmuni va tuzilashi aniqlandi. Naqqoshlik to‘garak mashg’ulotlarini san’at kollejalarida tayyorlanadigan ishlab chiqarish mutaxassisining yo‘nalishini hisobga olgan holda alohida kurs sifatida, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida esa o‘quv rejasiga asosan fakultativ yoki to‘garak mashg’ulotlari ko‘rinishida o‘quv jarayoniga kiritish zarur. Ushbu talablarni qondirish maqsadida to‘garak mashg’ulotlar mavzulari va talabalar bajaradigan mustaqil ish topshriqlarining ko‘p variantli (keng) qilib tayyorlanishiga zamin tayyorlandi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

- Naqqoshlik to‘garak mashg’ulotlari va talabalarning mustaqil ishlari bo‘yicha kontseptual talablar ishlab chiqildi.
- San’at kollejalarida o‘qitilayotgan xalq amaliy san’ati turlari shuningdek, naqqoshlik to‘garak mashg’ulotlari darsliklar bo‘yicha qisqa bo‘lsada tahlil qilib chiqildi.
- Naqqoshlik to‘garak mashg’ulotlarida naqqoshlik san’ati elementlarining mavjudligi tahlil qilindi.
- Xorazm viloyatidagi san’at kollejalarida va san’at gimnaziyalarda naqqoshlik to‘garak mashg’ulotlarini o‘qitish zarurligi tadbiq qilinib, talabalarning o‘qish va mustaqil hayotda, ijodda keng foydalanishi aniqlashga harakat qilindi.
- Naqqoshlik to‘garak mashg’ulotlari bo‘yicha o‘quv dasturi, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali qurollar, o‘quv jarayoniga kiritish metodikasi va korrektsiyalash materiallaridan iborat o‘quv- metodik majmua ishlab chiqishga, tajribada sinab ko‘rishga tavsiya qilindi.

- Qo'llanilgan tanlash metodikasi va mustaqil ish topshiriqlarining mazmuniy tuzilishi, O'MMning tuzilish va amalga joriy qilinishi boshqa yo'nalishdagi turdosh fanlarni takomillashtirishda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

O'tkazilgan tadqiqot zamonaviy san'at kollejlari talablari bo'yicha talabalarga to'la va har tomonlama ta'lim va tarbiya berishga ko'maklashadi. Bu yo'nalishdagi muammolar bo'yicha keyingi tadqiqotlar umum o'rta ta'lim maktablari, san'at gimniziyalari uchun o'quv reja, dastur hamda darsliklarni takomillashtirish yo'nalishda bo'lishi mumkin.

Men kelgusida ish faoliyatim davomida o'zbek amaliy bezak san'ati turlaridan naqqoshlik san'atidan olgan bilimlarimni yanada boyitishda izlanishlarni davom qildirib naqqoshlik to'garagi mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishda ilmiy asoslangan dasturlar tuzish, o'quv metodik ko'rgazmalar tayyorlash, tanlovlardan o'tkazish, mahalliy materiallardan foydalanish, ko'rgazmalar tayyorlashni tashkil etish, o'quv xonalarini zamonaviy jihozlashga harakat qilmoqchiman. Shu bilan birga naqqoshlik san'atidan ijodiy faoliyatimni davom qildirib, yangi-yangi uslubdagi san'at asarlarini yaratmoqchiman.

## **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq NMAK, 1997. 31-61 b.
2. Karimovning O'zbekiston Fanlar Akademiyasi umumiy yig'ilishida so'zlagan "Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga hizmat qilsin" mavzusidagi nutqidan. "Ma'rifat" gazetasi, 1994 yil, 13 iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T .: Sharq NMAK, 1997. 20-29-b
4. Азимов И.М. Ўзбекистон нақши нигорлари. Т. F.Фулом номидаги адабиуоти ва санъати нашриуоти. - 1987.
5. Апухтин О.К. Бадиий нақш мактаби. Т. «Ўқитувчи».- 1969.
6. Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Т. «Меҳнат». -1991.
7. Булатова В.А. Ноткин И.И. Архитектурные памятники Хива. Изд. Т. «Узбекистан». - 1965.
8. Манковская А.Л, и Булатова В.А. Памятники зодчество Хорезма. Т. Изд. лит. Искусство имени Г.Гуляма. - 1978.
9. Морозова А. С. Хивинский узор. Т. Госуд. Изд. Худ. лит. Уз.Р. 1957.
10. Ноткин И.И. Тош-хаули. Изд. Т. «Узбекистан». - 1968
11. Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. Т. Гос. Изд. Хид. лит. 1961.
12. Қосимов Қ. Накқошлиқ. Т. «Ўқитувчи» -1990.
13. Эгамов X. Бўюоқлар билан ишлаш. Т. «Ўқитувчи» -1990.
14. Очик осмон остидаги музей. Т. «Ўзбекистон» -1978.
15. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. – T: Iqtisod – molya, 2007.
16. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. – T: Iqtisod – molya, 2007.
17. G'ulomov K. M. Amaliy san'at - T: Iqtisod – molya, 2007.